

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOK XO‘JALIK INSTITUTI

VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO‘LCHILIK FAKULTETI

5620600 - Zootexniya (tarmoqlar buyicha) ta’lim yo‘nalishi

ESHMURATOVA GAVHARNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Buzoqlarni o‘shish va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar”
(Referatif ish)**

Ilmiy rahbar, katta o‘qituvchi

CHalabaev A.J.

“YAylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi” kafedrası mudiri, dotsent _____ YAxyaev B.S. « ____ » _____ 2014 yil № ____ - sonli yig‘ilish bayoni	Veterinariya, zootexniya va qorako‘lchilik fakulteti dekani, dotsent _____ N.O.Farmanov « ____ » _____ 2014 yil
---	--

S A M A R Q A N D 2 0 1 4

M U N D A R I J A

	bet
Kirish _____	4
I I. Adabiyotlar sharxi _____	8
III. Mavzu buyicha muammolarning quyilishi, qo‘llanilgan uslubiyatlar _____	10
IV. Mavzuning echimi va matnda yoritilishi _____	11
V. Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologik muammolarning yoritilishi _____	59
Xulosalar _____	64
Ishlab chiqarishga taklif va tavsiyalar _____	66
Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati _____	67
Ilovalar _____	

K I R I S H

CHorvachilik sohasida ham iqtisodiy islohatlar o'tkazila boshlandi va shu kungacha ushbu jarayon davom etib takomillashib kelmoqda. SHuning natijasida chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirishni huquqiy asoslari yaratildi. SHunga misol tariqasida 1993 yildagi "Veterinariya to'g'risida"gi, 1995 yildagi "Naslchilik to'g'risida"gi, 1996 yildagi "Seleksiya to'g'risida"gi davlat qonunlarini, ayniqsa shuni alohida qayd qilish kerakki sohani barqaror rivojlantirish borasida Respublika Prezidentining № 308 va 842 - sonli qarorlari dasturi amal bo'lib kelmoqda.

YUqorida qayd etilgan xuquqiy hujjatlar chorvachilikning bir tarmog'i hisoblangan qoramolchilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirishga ko'proq ta'luqlidir. CHunki aholi is'temolidagi sutni deyarli barchasi, go'shtni esa 70 % ga yaqini qoramolchilikdan olinadi. Tarmoq shuningdek mustaqillik yillarida barqaror rivojlanib, uning bosh soni har yili 6-10 % ga oshib 2013 yil 1 yanvar holati bo'yicha 10,3 million boshdan oshgan. Lekin bugungi kunda etishtirilayotgan chorvachilik mahsulotlari jumladan go'sht va sut aholi ehtiyoji darajasidan ancha past.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida "Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga alohida to'xtalmoqchiman" deb ta'kidlab, aAvvalo, quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman, 2013 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik - 6,4 foizga, chorvachilik - 7,4 foizga o'sdi.

Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon

bermoqda. Xususan, g'alla etishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka - 3,1 marta, sabzovat - 3,2 barobar, uzum - 2 marta, go'sht va sut - 2,1 karra, tuxum - 3,4 barobar oshdi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yunalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmokda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmokda.

2014 yilga mo'ljallangan keng ko'lamli dasturiy maqsad va vazifalar islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi yulida g'ov bo'lib turgan muammolarni echish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishni talab qilish haqida bugun gapirib o'tirishning zarurati yo'q, deb uylayman.

YAngi - 2014 yilning yurtimizda «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilingani jamoatchiligimiz, halkimiz tomonidan qanday ko'tarinki kayfiyat va mamnuniyat bilan kutib olinganiga, keng qo'llab -quvvatlanayotganiga barchamiz guvohmiz.

Bizning vazifamiz, kerak bo'lsa, oliy burchimiz - farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatidan uyg'un rivojlangan, zamonaviy bilim va tajribalarni puxta egalagan, Vatanimiz va halqimiz kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol insonlar bo'lib voyaga etishi uchun qo'limizdan kelgan barcha - barcha ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, belimizni mahkam bog'lab, har birimiz o'z joyimizda astoydil mehnat qilsak, Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyotiga munosib hisammizni qo'shsak, men ishonaman oldimizda turgan vazifalar qanday ulkan va murakkab bo'lmasin, biz o'z ko'zlagan ezgu marralarimizga albatta erishamiz.

CHorva mollari kasalliklarining oldini olish, podani yaxshilash va uni to'ldirish, yosh mollarni maqsadga muvofiq parvarishlash, hayvonlarni to'liqqiyimatli oziqa turlari bilan oziqlantirish choralari ko'rilmokda. Bundan tashqari chorvachilikni rivojlantirish borasida qator tadbirlar amalga oshirilgan. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining

majlisidagi (17 yanvar 2013yil) ma’ruzasida ham Respublikamizda qishloq xo’jaligi, aynan chorvachilik sohasida qilingan ishlar va kelgusida qilinishi kerak bo’lgan ishlar to’g’risida to’xtalib o’tdilar. Bu o’z navbatida chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy o’zgarishlarga olib keladi.

Prezident I.A.Karimov “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarida “SHu narsa shak-shubhasiz va ochiq – oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko’rsatgichlari bo’yicha Ittifoqdagi o’rtacha darajada ham ancha orqada bo’lib, mamlakatda oxirgi o’rinlardan birida turibdi. Biz bu raqamlarni ilgira ham necha martalab aytganimiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O’zbekiston har kishi boshiga yalai ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo’yicha mamalakatda 12- o’rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo’yicha ko’rsatgich esa Ittifoqdagi o’rtacha darajadan ikki hissa past. Qishloq xo’jaligidagi mehnat unimdorligi jahatidan esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jon boshiga halq iste’moli mollari ishlab chiqarish o’rtacha Ittifoq darajasining 40 foizini tashkil etadi. Biz daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste’mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o’rindan birida turibmiz” deb ta’kidlagan.

Jahon moliyaviy inqirozi to’g’risida Prezident I.A.Karimov “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” nomli asarida O’zbekiston qabul qilgan o’ziga xos islohat va modernizatsiya modeli orqali biz o’z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo’yar ekanmiz, eng avvalo “shok terapiyasi” deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyotini o’zini o’zi tartibga soladi degan o’sha jo’n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik deb ta’kidlagan.

«YUksak ma’naviyat engilmas kuch» asarida pedagoglar mexnatiga yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonlariga juda katta e’tibor bergan va ko’pgina tamoyillar hamda maslaxatlar keltirilgan. Asarda “Bugun biz tarixiy bir davrda halqimiz o’z oldiga ezgu va ulug’ maqsadlar qo’yib, tinch-osoyishta hayot kechiraetgan, avvalambor o’z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat

va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida o'lgan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishgan yutuqlarimizni halqaro jamiyat tan olgani bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz deb aytgan edi.

Respublikamizda 2013 yilda qoramollar soni 16,9 % ga, jumladan sigirlar soni 26,4 % ga, sut ishlab chiqarish 19,7 % ga, go'sht ishlab chiqarish 6,9 % ga ko'paygan. CHorvachilik sohasidagi ijobiy natijalar asosan shaxsiy xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ishlab chiqarish yaxshi tashkil etilganda ya'ni progressiv texnologiyalardan foydalanilganda chorva mollarning mahsuldorligining ko'payishi ko'p xo'jaliklarda o'z isbotini topdi.

II. ADABIYOTLAR SHARXI

Buzoqlarning kasal va nobud bo'lishiga ko'pincha oziqlantirish va saqlashda gig'iena qoidalari buzilishi sabab bo'ladi. Ko'pincha buzoqlarga hayotining birinchi kunidayoq ona sutini emish nasib etmay, ular sun'iy, toza og'iz suti ichadi va keyin sigir suti beriladi. Og'iz suti yangi tug'ilgan buzoqlar uchun almashtirib bo'lmaydigan oziqa hisoblanadi. Uning tarkibida hamma zarur bo'lgan to'yimli moddalar - oqsillar (kazein, albumin, globulin), mineral moddalar va vitaminlar bo'ladi. Ular immunno va bakteritsidlik xususiyatiga egadir. SHunday qilib, og'iz sutining tarkibi va xususiyati organizmda etishmagan himoyalash, sekretorlik va hazm qilish jarayonlarining o'rnini bosadi.

Musinov YA., Y.A. Suvonqulovlar (1995) utkazgan tajribalarda buzoqlar saqlanadigan binoda qish davrida 10 – 15 kunlikdan boshlab mikroiqlim ko'rsatgichlari o'zgara borgan. Qishda ammiak gazini miqdori $15-30 \text{ mg/m}^3$, nisbiy namlik 80-85 %, havoning harakat tezligi 0,1-0,2 m/sek, o'tish davrida esa shunga asosan ammiak miqdori $15-20 \text{ mg/m}^3$, mikroblar soni 70-80 ming/ m^3 , nisbiy namlik esa 65-70 %, kunlik o'sish 550-580 grammni tashkil etgan.

Qish davrida buzoqlar saqlanadigan bo'limda havoning harorati $+16-18^0\text{S}$, nisbiy namlik 70-75 %, ammiak miqdori $10-15 \text{ mg/m}^3$, havoning harakat tezligi 0,1-0,15 m/sek, shunga asosan o'tish davrida $+18-22^0\text{S}$, nisbiy namlik 71-75 %, havoning harakat tezligi 0,1 m/sekundni tashkil etdi. Buzoqlar o'rtasida qishda turli kasalliklar 3 %ni, o'tish davrida 5 % ni tashkil etdi. Hatto qon ko'rsatgichlarida, buzoqning kunlik massasini o'sishida ham o'zgarishlar bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, buzoqlarni qish va o'tish davrida har bir oziqlantirishdan so'ng tabiiy ventilyasiyani to'g'ri yo'lga qo'yib, go'ngdan tozalangandan so'ng mikroiqlim ko'rsatgichlari me'yorda bo'lib, buzoqlarning tirik massasining o'sishi va uchraydigan kasalliklarni kamayishiga olib keladi.

Hayvonlar organizmi doimiy ravishda endogen va ekzogen muhit sharoitida bo'ladi. SHuning uchun ham yilning fasliga, boqish va oziqlantirish sharoitiga qarab fiziologik, bioximyaviy va mahsuldorlik ko'rsatkichlari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Qoramollarning tabiiy – iqlim sharoitiga moslashishini ularning

genetik xususiyatlari hamda saqlash va oziqlantirish texnologik sharoitini belgilaydi. Chunki qoramollarni tashqi muhitning yuqori harorati ta'siriga qarshi javobi ularning genetik xususiyatida jamlangan bo'ladi.

SH.Akmalxonovning (1993) ta'kidlashicha qoramolchilik sohasidagi tadqiqot ishlarida Markaziy Osiyoning tabiiy – iqlim sharoitlariga madaniy zotlarning moslashish fizologik mexanizmlarini o'rganish, tashqi muhitning yuqori havo harorati va quyosh energiyasining hayvonlar organizmiga salbiy ta'sirini engillashtirish vazifasi har doim ustivorlikka ega bo'lgan. Albatta bu holatdan qoramollarning genetik kelib chiqishlari yani genotipi ham muhim o'rin tutadi.

A.Kaxarov va boshqalar (2009) Surxondaryo viloyati SHerabod tumani sharoitida qora-ola va shu zot sigirlarini genetik bo'g'imlari bilan chatishtirish natijasida olinagan birinchi bo'g'in va keyingi bo'g'im avlodlarini klinik va gemotologik ko'rsatkichlari o'rganilib, yozda yurak urishi, tana harorati va nafas olishi yoz va qish fasllariga nisbatan biroz yuqori bo'lganligini ta'kidlashgan.

Akmalxonov T. (2009) ta'kidlashicha Respublikamiz aholisini chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda mollar mahsuldorligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu esa yuqori mahsuldorlikka ega sigirlarni etishtirishda podani to'ldiruvchi buzoqlarni maqsadga muvofiq o'stirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, sut mahsuldorlik ko'rsatkichlardan tashqari, o'xshashlik belgilari buyicha bir xil bo'lgan sigirlardan ham turli yirik vazndagi buzoqlar tug'iladi.

Odatda, xo'jaliklarda turli sug mahsuldorli sigirlardan tug'ilgan buzoklarni alohida boqib o'stirishga kam ahamiyat beriladi, chunki bu masala mahsus tadqiqotlarda to'liq o'rganilmagan.

III. MUAMMOLARNING QUYILISHI VA QO‘LLANILGAN USLUBIYATLAR

Respublikamizda o‘rchitilayotgan qoramollarni zoogigienik talablarga javob beradigan sharoitda saqlash, mikroiklim ko‘rsatgichlarini ta‘minlash va to‘liq qiymatli oziqlantirish natijasida yosh hayvonlarning o‘sinh va rivojlanishi 10-12% ga oshishi tajribalarda aniqlangan. Respublikamizda qoramolchilikni rivojlantirishning asosiy yo‘li podani yuqori mahsuldorlika ega bo‘lgan qoramollar bilan to‘ldirish bilan birga yosh buzoqlarni o‘sinh va rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining echimini topishda mavzuga taaluqli ilmiy tadqiqot ishlar olib borgan MDH, chet el va mamlakatimiz olimlarining ilmiy izlanishlarini o‘rganib xulosalar berishga harakat qildik. Bitiruv malakaviy ishida tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlar natijalarini ma‘lum yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlariga bo‘lib o‘rgandik. YOsh buzoqlarning o‘sinh va rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillarni bo‘limlarga bo‘lib o‘rganishni shartli ravishda uslub deb atadik.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi, bajarish uslubi, maqsadi va vazifalari kafedra yig‘ilishda ko‘rib chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi - Respublikamizda urchitilayotgan yosh buzoqlarni o‘sinh va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rgangan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarining natijasini tahlil qilish hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishida bundan tashqari xo‘jalikda hayot faoliyati xavfsizligi hamda ekologik muammolar o‘rganildi. Barcha o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar natijasini tahlili bo‘yicha xulosalar qilinib tavsiyalar berishga harakat qilingan.

IV. MAVZUNING ECHIMI VA MATNDA YORITILISHI

YAngi tug'ilgan buzoqlar alohida saqlanadi. CHunki ular tashqi muhit sharoitiga ko'nikmagan, katta hayvonlarga nisbatan himoyalaniish - moslashish jarayonlari kam rivojlangan bo'ladi. YAngi tug'ilgan buzoqlarning ichaklarini shilliq pardalarida shilimshik modda qoplamagan bo'ladi. Oshqozon va ichaklar deyarli hazm kiluvchi shiralarni, ayniqsa bakteritsid xususiyatga ega xlorid kislotasini ishlab chiqmaydi. YAngi tug'ilgan buzoqlar qonida oqsillar miqdori chegaralangan, ayniqsa, immuno gammaglobulinlar kam bo'ladi. Ular organizmga birinchi emgan og'iz suti bilan kiradi. Tugilgandan keyin ikkinchi kunidan boshlab buzoqlar qonida umumiy oqsillar birdaniga ko'payadi va $6,18 \pm 0,62$ - $7,22 \pm 0,61$ g/% ga etadi. Tug'ilgan kunida $1,52 \pm 0,41$ - $2,25 \pm 0,31$ g % bo'ladi.

Sog'lom buzoqlarning 1 - 90 kunlik yoshida qon zardobi tekshirib ko'rilganida, ularning qonida antitela va lizotsim deyarli bo'lmaydi. SHu bilan birga qon zardobining komplimentar aktivligi ancha yaxshi ifodalangan. Buzoq tug'ilgandan keyin tekshirilib ko'rilganda bu ko'rsatkich sigirlarni tug'ishidan oldingiga nisbatan ikki baravar ortiq bo'lgan.

Buzoqlarning kasal va nobud bo'lishiga ko'pincha oziqlantirish va saqlashda gig'iena qoidalari buzilishi sabab bo'ladi. Ko'pincha buzoqlarga hayotining birinchi kunidayoq ona sutini emish nasib etmay, ular sun'iy, toza og'iz suti ichadi va keyin sigir suti beriladi. Og'iz suti yangi tug'ilgan buzoqlar uchun almashtirib bo'lmaydigan oziqa hisoblanadi. Uning tarkibida hamma zarur bo'lgan to'yimli moddalar - oqsillar (kazein, albumin, globulin), mineral moddalar va vitaminlar bo'ladi. Ular immunno va bakteritsidlik xususiyatiga egadir. SHunday qilib, og'iz sutining tarkibi va xususiyati organizmda etishmagan himoyalash, sekretorlik va hazm qilish jarayonlarining o'rnini bosadi.

Buzoqlarni sun'iy ravishda og'iz suti va sut bilan oziqlantirish sharoiti xuddi onasini emayotgan sharoitga mos bo'lishi kerak. Og'iz suti va sut yangi va toza, harorati sigir tanasi haroratiga yaqin $+35^0$ - 37^0S bo'lishi kerak. Sut va og'iz suti

sovuq bo'lsa, buzoqlarda ich ketishiga sabab bo'ladi. Buzoqlarni og'iz suti va sut bilan boqishda rezina so'rg'ichlardan foydalanish zarur.

Oz miqdorda og'iz bo'shlig'iga tushgan sut so'lak bilan yaxshi aralashadi va oldingi qoringa tushmay qizilo'ngach orqali shirdonga tushadi. Oshqozon shirasi ta'sirida sutdan bo'sh quyuq birikma hosil bo'lib, keyinchalik engil parchalanib hazm bo'lishi oson bo'ladi. Agar ular chelak orqali ichirilsa, katta-katta yutim qilib, bir daqiqada tamom qiladi. Bunday ichishda sutning bir kismi oshqozonga tushadi, og'iz bo'shlig'ida so'lak bilan aralashmaydi. Bu holda ichakka tushgan sut yomon hazm bo'ladi, ko'pincha hazm bo'lish va modda almashish buziladi va har xil kasalliklarga chalinadi (dispepsiya).

Har bir xo'jalikning yo'nalishiga qarab sut yoki uning o'rnini almashtiradigan oziqalar har xil tarkibda qo'llaniladi. Naslli va foydalaniladigan urg'ochi buzoqlarga hammasi bo'lib o'rtacha 200 - 250 kg yog'i olinmagan va 400 - 450 kg yog'i olingan sut ichiriladi. Naslli buqachalarga esa bularning miqdori 20 – 30% ga ko'paytiriladi.

Dag'al oziqalarga (pichan) buzoqlar 10 kunligidan boshlab o'rgatila boshlanadi. 20 - 25 kunligidan boshlab buzoklar ratsioniga suli va o't unlari qo'shiladi, ikki oylik yoshidan keyin esa em oziqalar aralashmasi (suli, kepak, kunjara) qo'shiladi. Sabzi 45 - 60 kunligidan boshlab, silos esa 4 oyligidan boshlab beriladi.

Buzoqlarni to'g'ri oziqlantirish bilan birga ularni saqlash va parvarish qilish ham katta ahamiyatga ega. Buzoqlar 10 kunligidan boshlab yayratishga chiqariladi. Terilarini parvarish qilish va tozalashga o'rgatiladi. Ko'pgina xo'jaliklarda buzoqlar 10 - 20 kunlik yoshida yoki profilaktoriya sharoitida 20 - 25 sm qalinlikda to'shama solingan alohida kataklarda yakka holda saqlanadi. Bu usulning yaxshi tomoni shundan ibaratki, buzoqlar bir-birini yalash odatini yo'qotadi va har xil kasalliklarning tarqalishiga sharoit tug'ilmaydi.

Keyin buzoqlar buzoqxonalariga o'tkazilib, guruh holida kataklarda saklanadi. Buzoklar uchun mikroiklim alohida ahamiyatlidir. Guruhlarni tashkillashtirishda buzoqlarning farqi 10 - 15 kunlikdan oshmasligi kerak.

Profilaktoriyada havoning harorati $+16 - 18^{\circ}\text{S}$ dan past bo'lmashligi, nisbiy namlik 70% dan oshmasligi zarur. Buzoqonada esa harorat $+12^{\circ} - 16^{\circ}\text{S}$ va namligi 70% bo'lishi kerak. Bundan tashqari binolar yaxshi shamollashi (ventilyasiya) va zararli gazlar yig'ilib qolmasligi (ammiak, vodorod sulfid va boshqalar) kerak. Buzoqlar organizmining tabiiy chidamligini oshirish maqsadida ultra binafsha va infra qizil nurlar berilib turiladi.

YOz paytlari buzoqlarni lagerlarda, yarim ochiq yoki yopiq bostirmalarda alohida kataklarda yakka yoki guruhlarda saqlash mumkin. Buzoqlarni sog'lom o'sishi uchun oziqlantirish, saqlash va ularni parvarish qilish talablariga qattiq rioya qilish zarur.



1 – rasm. Buzoqlarni soyabonli ayvon jstida to'shamada saqlash

Qoramolchilikda intensiv go'sht ishlab chiqarish sharoitida buzoqlarni o'stirishda o'gay ona sigirlardan ham foydalaniladi. O'gay ona sigirlar va sut emadigan buzoqlar ajratilmagan va navbat guruh usulida maxsus jihozlangan binolarda saqlanadi. Har bir sigirga 2 - 4 boshgacha buzoq berkitiladi. Buzoqlar tug'ilgandan 7 - 10 kunligigacha onasini erkin emib yuradi. Keyin ularni o'gay ona

sigirlarga o'tkaziladi va 2 - 3 oyligigacha emadi. Bu sigirlar butun sut berish davrida 3 guruh buzoklarni boqishi mumkin.

CHorvachilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda hayvonlarning o'sish rivojlanishiga mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan eng asosiylari ularni saqlash, boqish va oziqlantirish bo'lib xisoblanadi. Buzoqlarni zooveternariya talablariga javob beradigan sharoitga saqlab o'sish rivojlanishini maxsuldorligi xisobga olgan xolda ratsion tuzish bizning tajribalarni asosiy vazifalardan biridir. Buzoqlar tugilganidan to 10-kunligigacha onasi bilan saqlanadi. Keyin ajratib aloxida kataklarda buzoqxonada saqlab to 1 oyligigacha qo'l bilan og'iz suti keyin esa yog'i olingan sut berib boqiladi.

Buzoqlar 2 oyligigacha saqlanadi. Buzoqlar saqlanadigan buzoqxona hamma zoogigienik va veterinariya sanitariya talablariga javob beradi. YOnida yaratish maydonlari ham mavjuddir. Buzoqxonada har bir bosh buzoq uchun 0,8 -1,2 m. kv joy ajratilgan, har bir bosh buzoqqa 0,4 - 0,6 m kenglikda oxur o'rnatilgan. Xo'jalikdagi urg'ochi buzoqlar poda tarkibini tuldirish uchun erkaklari burdoqiga boqish uchun parvarishlanadi. Buzoqlar uchun ratsion tuzishda asosiy normativlar va tavsiyanomalardan foydalanildi. 2 - 6 - oylik buzoqlariga tuzilgan ratsion qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

1 - jadval

2 oylik buzoqlar uchun oziqa ratsioni

№	Ozuqalar turi	Miqdori, kg	Oz. birligi	Hazm. protein, g
1	YOg'i olingan sut	3	0,90	99
2	Obrot	2	0,26	70
3	Ko'k beda	4	0,80	184
4	Omixta em	0,7	0,52	68
5	Osh tuzi	10	-	-
	Jami		2,48	421

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki 2 oylik buzoqlar uchun tuzilgan ratsionida oziqa birligi 2,48 ga teng bo'lib har bir oziqa birligiga 169,7 gr hazmlnuvchi protein to'g'ri keladi. Bu ratsion asosiy me'yorlarga tug'ri kelib bu buzoqlarni yaxshi o'sish va rivojlanishni ta'minlaydi. Ratsion tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak barcha ozuqalarning 41,2%, shirali oziqalar 7,2% va kuchli ozuqalar 51,5% tashkil etgan.

2 - jadval

4 oylik buzoqlar uchun ratsion tarkibi

№	Oziqa turi	Miqdori (kg)	Ozuqa birligi	Hazm protein	Sa, g	R, g	Karotin, mg
1	YOg'i olingan sut	5	0.65	175	7.0	5.0	-
2	Ko'k beda	7	1.54	266	31.5	7.0	308
3	Omixta em	0.8	0.60	77.6	1.6	2.88	2.0
4	Osh tuzi	0.01	-	-	-	-	-
	Jami	-	2.79	518.6	40.1	14.88	310

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki 4 oylik buzoqlar uchun tuzilgan ratsionida oziqa birligi 2,79 ga teng bo'lib har bir oziqa birligiga 185,8 gr hazmlnuvchi protein to'g'ri keladi.

3 - jadval

6 - oylik buzoqlar uchun ratsion

№	Oziqa turi	Miqdori, kg	Oziqa birligi	Hazm protein, g	Sa, g	R, g	Karotin, mg
1	Somon	5	1,0	25,0	34,0	10,5	20
2	Ko'k beda	12	2,64	456,0	54,0	12,0	528
3	Omixta em	1,5	1,12	145,5	3,0	5,4	3,9
4	Osh tuzi	-	-	-	-	-	-
	Jami	-	4,76	626,5	114	27,9	551,9

6 oylik buzoqlar uchun tuzilgan oziqa ratsionida jami oziqa birligi 4,76 ga teng bo'lib, har bir oziqa birligiga 131,6 gr hazmlanuvchi protein to'g'ri kelganligini ko'ramiz.

Bu ko'rsatkichlar har oy davomida o'zgarib turgan buzoqlarni ikki oyligida sut ratsionning asosini tashkil etgan, keyingi oylarida ko'k beda va omixta em miqdori oshirib berilgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki oziqlantirish sharoiti bir xil bo'lgan guruhlarda tajribadagi buzoqlar yaxshi o'sib rivojlangan. Guruhlar orasidagi oziqlantirish bo'yicha ya'ni qoldiq qolgan oziqalar orasidagi farq buzoqlarni saqlash sharoitiga bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Hayvonlarning ist'emol qilgan oziqasiga haq to'lashni aniqlash uchun uning o'sish ko'rsatkichlarini tahlil qilib qo'yidagi natijalar olindi. Buni qo'yidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

4 - jadval

Jami tajriba davomida sarflangan oziqa miqdori (kg)

№	Oziqa turi	Miqdori, kg	Oziqa birligi	Hazmlanuvchi protein, kg
1	YOg'i olingan sut	90	27	297
2	Obrat	210	27,3	7,350
3	Ko'k beda	860	189,2	32,680
4	Somon	150	33,0	1,35
5	Omixta em	90	81,0	10,8
6	Osh tuzi	0,8	-	-

Ushbu jadval ma'lumotlarini tahlili shundan iboratki tajriba davomida buzoqlarga berilgan oziqalar tarkibidagi hazmlanuvchi proteining umumiy miqdori 10,8 kg ga teng bo'lgan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki oziqlantirish sharoiti bir xil bo'lgan guruhlarda buzoqlarning o'sishi uchun sarflangan oziqa miqdori quyidagi jadvalda keltirilgan.

**Buzoqlarning 1 kg o'sishi uchun sarflanadigan
oziqa birligi**

№	Ko'rsatgichlar	tajriba guruhi	nazorat guruhi
1	Tajriba boshida buzoqlarning tirik og'irligi, kg	24,5	24,8
2	Tajriba oxirida buzoqlarning tirik og'irligi, kg	132,8	119,6
3	Tajriba davomida 1 bosh hayvonning mutloq o'sishi, kg	108,3	94,8
4	O'rtacha kunlik semirish, g	601,7	526,7
5	Jami sarflangan oziqa birligi	454,8	454,8
6	1 kg semirish uchun sarflangan oziqa birligi.	4,2	4,8

Jadval ko'rsatgichlar shundan dalolat beradigan tajriba davomida olingan qo'shimcha tirik vazn tajriba guruhida 132,8 kg bo'lib, kunlik semirish nazorat guruhida 526,7 g bo'lib, tajriba guruhiga nisbatan 75 g kam demakdir.

Buzoqlarning kunlik semirishi tajriba davomida bir xil bo'lmagan. Buzoqlarning kunlik o'sishi o'rtacha tajriba guruhida 601,7 g to'g'ri kelgan bo'lsa, nazorat guruhida 526,7 gr ni tashkil qilgan. Tajriba oxirida kunlik o'sish bo'yicha tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 75 g ga yuqori bo'lgan. Buzoqlarni 1 kg qo'shimcha vazni uchun sarflangan oziqasi tajriba guruhida 4,2 oziqa birligiga to'g'ri kelgan bo'lsa, nazorat guruhida bunga nisbatan 0,6 oziqa birligi ko'p sarflangan.

Buzoqlarning o'sish va rivojlanishiga nasl xususiyatlari bilan bir qatorda ularni zarur bo'lgan zoogigienik sharoitlar etarli bulmasa ular uz sog'ligi va o'sish qobiliyatini saqlab qola olmaydi. Tajriba davomida buzoqlarni o'sish va rivojlanishiga saqlash usullarining ta'siri quyidagi jadvalda keltirilgan.

Buzoqlarning tirik vaznining o'zgarishi (kg)

№	Buzoqlarni yoshi (kun)	Tajriba guruxi	Nazorat guruxi
1	Tug'ilganida	36,0	36,0
2	1 oyligida	54,0	50,0
3	2 oyligida	70,0	67,0
4	3 oyligida	85,0	80,0
5	4 oyligida	100,0	93,0
6	5 oyligida	107,0	101,0
7	6 oyligida	121,0	112,7

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki buzoqlarning tirik vaznining o'zgarishi tajriba guruxida tug'ilganida 36 kg, 2 oylik yoshida 18 kg ga, 3 oylik yoshi da 16 kg ga, 4 oylik yoshida 21 kg ga, 5 oylik yoshida 7 kg ga va 6 oylik yoshida 14 kg ga yuqori bo'lgan. SHundan xulosa qilish mumkinki buzoqlarni erkin holda yayratish maydonlarda saqlash, ularning tirik vaznining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shunday o'zgarishlar buzoqlarning kunlik, mutloq va nisbiy o'sishidan ham namoyon buladi. Buzoqlarning yayratish maydonida saqlanganda kunlik, mutloq va nisbiy o'sish qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki buzoqlarning tirik vazni 1 oylik yoshida 36 kg o'rtacha kunlik o'sishi 600 kg mutloq o'sishi 18 kg nisbiy o'sishi 50 % ga tug'ri kelgan. Buzoqlarning tirik vazni 3 oylik yoshida 70 kg ni kunlik o'rtacha o'sish 700 g mutloq o'sish 21 kg ga to'g'ri kelib nisbiy o'sish 28,1 % ni tashkil etadi. Buzoqlarning 4 oylik yoshida tirik vazni 91 kg ga (o'rtacha o'sish 700g, mutloq o'sish 21 kg nisbiy o'sish 31% ga) tug'ri keladi.

Hayvonlardan yuqori maxsulot olish chidamlilik qobiliyatini yuqori bo'lishi oziqa sarfini kamayishi uchun chorvachilikda iqtisodiy tomondan xayvonlar saqlanadigan binolarda havo haroratini farqsiz holatda saqlash maqsadga muvofiqdir (S.I.Plyashenko,V.S.Sidorov 1979) Hayvonlar organizmiga havo haroratining past bo'lishi ma'lum darajadagi o'zgarishlarni kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Uzoq muddat davomida hayvonlarni molxonalarda saqlashda organizmga past haroratning ta'siri natijasida issiqlikni hosil bo'lishiga qaraganda sarflanishi yuqori bo'lib organizmni sovub ketishiga olib keladi. Natijada hayvonlarning tana harorati pasayib oksidlanish jarayonlari sekinlashadi, hayvonlarning yuqumli mikroblarga chidamlilik qobiliyati pasayadi, qon tarkibidagi leykotsitlar, fagotsitlar aktivligi, qon zardobining bakteritsid aktivligi 4-oylik yoshiga kelib 1-guruh tajribadagi cho'chqalar o'sishi 14.3 % kamayib, 1 kg o'sishi uchun oziqa sarfi 2 - guruhga nisbatan 14.4 %ga, kasallanish holati 25 %ga yuqori bo'lganligini A.P.Onegov, V.I.Chernых va boshkalar (1984) aniqlaganlar. Tekshirishlarda havo harorati va yuqori namligi bo'lgan molxonalarda saqlaganda yosh hayvonlarning o'rtacha kunlik o'sishi 9,6-28% ga kamayib, oziqa sarfi 12-30% ga, kasallanish holatlari 1.5-2 barobarga yuqori bo'lgan. T.V.Golubeva (1979) cho'chqaxonalarda yosh cho'chqalar uchun haroratni $+21^{\circ}\text{C}$ - 13°C ga, nisbiy namlikni 72-74 %, havo harakatining tezligi 0,11-0,13m/sek bo'lishi cho'chqa bolalarining tabiiy chidamlilik qobiliyatining pasayishi natijasida ular o'rtasida 6,6-23,2 % kasallanishini o'z tajribalarida aniqlagan. Olimlarning kuzatishlarida molxonalar havosi haroratining 19°C - 5°C ga sovishi yosh mollarning o'rtacha kunlik o'sishini 2 %, kritik holatdan pastga tushishi 4 % ga kamayishi, issiqlik hosil bo'lishi 21,4% yuqori bo'lib oziqani ko'p sarflanishini A.P.Onegov (1984) kuzatgan. YU.M.Markov (1981) o'z tekshirishlarida molxonalarda havo haroratini mu'tadil darajada saqlamaslik natijasida ko'pgina xujaliklarda hayvonlarni mahsuldorligini 20-50 %gacha kamayishini aniqlagan.

Suvanqulov YU.I. (2003) kuzatishlaricha Samarqand viloyati xo'jaliklarida issiq iqlim sharoitida molxona va yayrash maydonchalarida iqlim

ko'rsatgichlarini pasaytirish choralaridan (ayvonlar bostirmalar) foydanilganda buzoqlarning kunlik o'sishi va sigirlarning mahsuldorligini oshganligini aniqlagan.

Issiq iqlim sharoitida molxonalarda muayyan mikroiklim ko'rsatishlarini saqlash hayvonlarni mahsuldorliga, tabiiy chidamlilik qobiliyatini (U.K.Izbosarov, YA.X.Musinov (1995) Quldoshov O.U., D.Eshimovlar (2009) o'z izlanishlarida qoramollarni saqlash usuli va yilning fasliga qarab o'zgarib borishlarini kuzatganlar. V .I. Rodin, E. A. Gogileva (1996) molxona havo harorati $+21 - 16^{\circ}\text{C}$ gacha kamayishi molxonada saqlangan qoramollarni kliniko-fiziologik ko'rsatgichlarining me'yorda kechishi va mahsuldorligini yuqori bo'lishini kuzatgan.

A.Tarvidos., B.Bakutus tajribalarida shunday xulosaga kelishganlar yuqori harorat va quyosh quyosh radiatsiyasi sigirlarning sut mahsuldorligini pasayishiga sababchi bo'lgan. Sigirlarni bir hafta davomida quyosh nurlari ostida yayrash maydonchasida saqlash ularning sut mahsuldorligini 33 %ga kamayishini aniqlaganlar. S.Nuraliev (1995) o'z ilmiy izlanishlarida molxona haroratining $+23-26^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishi qoramollar tana haroratini $0,5^{\circ}\text{C}$ ga yuqori bo'lib, mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatganligini aniqlagan. X.I.Soldatenkov (1988) ko'rsatishicha bino haroratining har $+1^{\circ}\text{C}$ ga o'zgarishi va $+26^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lishi sigirlar tana haroratini $0,2^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishini va ular organizmida kliniko-fiziologik holatlarning o'zgarishiga sababchi bo'lganligini aniqlagan.

3. Nechaeva (1984) ikki xil qurilish materiallaridan ya'ni g'ishtdan va temir betondan qurilgan molxonalarda havo harorati g'ishtdan qurilgan binoda me'yorda saqlanganligi uchun sigirlarning sut mahsuldorligi betondan qurilgan molxonalarda saqlangan sigirlarga nisbatan 16 %ga yuqori bo'lganligini qayd etadi. M.P.Pogrebnyak (1982) tajribasiga ko'ra molxona havosining har xil harorati molxonalarda saqlangan hayvonlarning fiziologik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishini aniqlagan. I.K. Kolesnikov (1977) haroratning $+23^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishi hayvonlarda issiqlik almashinuvining buzilishiga olib kelishi, nafas

olish 5,6 marta, yurak urishi 100 martagacha hamda tana haroratini ko'tarilganligi aniqlangan.

Hayvonlar organizmiga boshqa iqlim ko'rsatkichlari qatori havoni nisbiy namligining 35 %ga yuqori bo'lishi organizmdan issiqlik ajralishi salbiy ta'sir kursatadi. Havo tarkibida namlikning ko'p bo'lishi issiqlikni parlanishini kamaytiradi. Namlik va haroratni yuqori bo'lishi issiqlik ajratishini kamaytiradi, natijada organism qizib ketadi. Natijada modda almashinivi pasayadi, ishtaha yo'qoladi, hayvonlar bo'shashadi, mahsuldorligi kamayib, turli xil yuqumli kasalliklarga chidamlilik qobiliyati pasayib, yuqumsiz kasalliklarga beriluvchan bo'lib qoladi. YUqori namlik va haroratining past bo'lishi hayvonlar organizmiga salbiy ta'sir qiladi. Nam havoning issiqlik qabul qilishi quruq havoga nisbatan 10 barobar yuqori bo'ladi. Natijada quruq havoga nisbatan nam havo ko'p issiqlikni qabul qiladi YUqori namlik past harorat bilan birgalikda issiqlik ajralishini ko'paytiradi, organizmning sovub ketishi va shamollash kasalliklarini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa yosh mollar bunday o'zgarishlarga sezuvchan bo'ladi.

SHuning uchun hayvonlarni nam zax molxonalarda saqlash, burunning yallig'lanishi, bronx va o'pka kasalliklarini kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Oshqozon-ichak, mastit, tuberkulyoz, trixofitiya kasalliklari hamda mollarni mahsuldorligini kamayib ketishiga olib keladi. YUqori namlik va havo haroratining o'zgarib turishi hayvonlarni fiziologik holati hamda mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

I.M.Golosov (1971) va boshqalar o'z ilmiy ishlarida 2-guruh o'sishdagi buzoqlarni ajratib, 1-guruh buzoqlar namligi 90-100 %, havo harorati $+2 +10^{\circ}\text{C}$ bo'lgan molxonada; 2- guruh buzoqlar namligi 80-90 %, havo harorati $+1 - 15^{\circ}\text{C}$ bo'lganida tajribaning oxiriga kelib 1-guruh buzoqlarning qonida gemoglobin va eritrotsitlarning miqdori 12,8 %, leykotsitlarning fagotsitar aktivligi 15,7 % ga, lizotsim miqdori 3 barobarga tajriba guruhiga nisbatan kam bo'lib buzoqlarning kunlik o'sishi 15- 20 % kamayganini kuzatgan. Sovuq iqlim sharoitlarida va issiqlikni me'yorda

bo'lishi havo almashinuvini kamayishi, sovuq havoni qish va o'tish davrida bo'lishi natijasida namlikni 80 %ga oshishi natijasida, buzoqlarning tabiiy chidamlilik qobiliyatini pasayishi natijasida 15-20 % nobud bo'lishi aniqlangan. Atmosfera havosining nam yoki quruq bo'lishi hayvonlarning umumiy fiziologik holati va tabiiy chidamlilik qobiliyatiga ta'sir qiladi. SHuning uchun hayvonlarning sog'ligini saqlash hamda mahsuldorligini oshirishda mikroiklim ko'rsatkichlarni me'yorida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Tashqi muhit harorati bilan hayvonlar organizmi o'rtasidagi issiqlik almashinuvi teskari qarama - qarshilik holatida bo'lib, havo haroratining pasayishi hayvonlar organizmida modda almashinish jarayonining kuchayishi, havo haroratining ko'tarilishi va modda almashinuvining pasayishiga olib keladi.

Tashqi muhit sharoitlari hayvonlar sog'ligi va mahsuldorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Hayvon organizmiga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillari etarli darajada rang barang. Ulardan avvalo havo tarkibi va xossalarining ta'siri sezilarlidir. Havoning muhim tarkibiy qismlaridan kislorod hayvonlarga nafas olish uchun zarurdir. Nafas olishda kislorod qonga so'riladi va butun tana bo'ylab tarqaladi. Kislorodni yutarkan, hayvonlar nafas chiqarayotganda havo bilan birga karbonat angdrid gazi (3,4%) va suv bug'larini ajratib chiqaradi. SHu bilan bir qatorda hayvonlar ichak gazlari metan, vodorod sulfid va boshqalarni ajratadi. Ventilyasiya va kanalizatsiya yo'qligi, molxonalardagi go'ng o'z vaqtida tozalanmasa ko'p miqdorda zararli gaz ammiak hosil bo'ladi. Uning mavjudligini molxonadagi yoqimsiz hiddan bilib olish mumkin. Bundan tashqari, molxona havosi chang oziqa va to'shamalar qo'llaganda ham ifloslanadi.

SHunday qilib, molxonada kanalizatsiya va ventilyasiya yaxshi ishlamaganda, hayvonlar zich saqlanganda, ularni o'rab turgan havo tarkibi sof atmosfera havosidan keskin farq qiladi. Bundan tashqari havo namligining ham ahamiyati katta. Haddan tashqari namligi yuqori va zax molxonalarda hayvonlarda tuberkulyoz, revmatizm, mastit kabi kasalliklarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

YOsh hayvonlar zax molxonalarda kolibakterioz, paratif va boshqa yuqumli kasalliklar bilan kasallanadi. Havo harorati juda past yoki juda yuqori bo'lishi ham hayvonlar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

YOrug'lik ayniqsa quyosh nurlari hayvonlar organizmiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. YOrug'lik etishmaganda yosh hayvonlar sust rivojlanadi, katta hayvonlarda mahsuldorlik va jinsiy funksiyalar pasayadi.

Hayvonlar uchun binolar yoritilganlik darajasi haqida so'z yuritilganda deraza maydoni (oyna yuzasi) ning pol maydoniga nisbatiga ko'ra baholash qabul qilingan. Bu yorug'lik koeffitsenti (YOK) deb ataladi. Naslli, yuqori mahsuldor hayvonlar va yosh hayvonlar uchun YOK 1:15 - 1:20 nisbatni tashkil etadi. Sut yunalishidagi qoramollarni bog'lamay parvarishlashda molxonaning YOK 1:30 dan to 1:40 gacha, go'sht yunalishidagi qoramollar uchun esa 1:60 bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sobirov T., A.Amirov., A.Urymbetovlar (2013) ma'lumotlariga ko'ra respublikamiz fermer xo'jaliklarida yangi tug'ilgan buzoqni sog'lom qilib, oshqozon-ichak kasalliklariga chalintirmay o'stirish kelgusida mol bosh sonini ko'paytirishda katta ahamiyatga ega. Asosan buzoq tug'ilgandan keyin 2-3 kun o'tgach oshqozon-ichak kasalliklariga uchrab nobud bo'ladi yoki o'sishdan qoladi.

Sut emizuvchilar tuqqandan so'ng sut bezlarini birinchi kunlarida chiqaradigan ekskreti - og'iz suti bo'lib, o'zining kimyoviy tarkibi, fiziologik xususiyatlari va tabiatiga ko'ra boshqa oddiy sutlarga qaraganda yuqori biologik qiymatga ega. Og'iz sutining tarkibida oqsil 16 % gacha, globulin 13 % gacha miqdorda saqlanadi. Bular yosh organizmni kasalliklardan saqlashda katta rol uynaydi ya'ni antitelo tashuvchi hisoblanadi. Og'iz suti yangi tug'ilgan organizm uchun birdan bir yagona oziqa hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan kundan-kunga og'iz sutining tarkibidagi biologik (oqsil, globulin, aminokislotalar) moddalar kamayib boradi. Bu kamayish sigirlar mahsuldorligiga bog'liq bo'lib, 3-5 kungacha davom etadi va keyinchalik oddiy sut qatoriga kiradi, og'iz suti oqsillari sut oqsillariga tenglashadi. Bizga ma'lumki, oqsil moddasi sut tarkibini quyuqlashtiradi, yopishqoqligini oshiradi. Og'iz suti yog'liligi oddiy sut yog'liligiga o'xshash

bo'lib, sifat jihatidan biroz boshqacharoqdir. Og'iz suti tarkibidagi mineral moddalar 1,20 % ni tashkil etadi yoki oddiy sutga nisbatan ikki barobar ko'pdir. Dastlabki kunlardagi cog'ib olingan sut og'iz suti tarkibidagi quruq modda 30 – 32 % ni tashkil qiladi va og'iz suti zichligini oshiradi. Og'iz sutining kislotaliligi 30-50⁰T gacha borishi mumkin. Og'iz sutining kislotali bo'lishi uning immunobiologik xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Og'iz suti tarkibining bunday o'zgarishi hayvonning zotiga, yoshiga, yil faslidagi oziqlanishiga, yashash sharoitiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Og'iz sutining yuqori darajada kislotali bo'lishi, oshqozon - ichak tizimining ishlariga yaxshi tasir ko'rsatadi. Og'iz suti tarkibida A, D, E. vitaminlari ko'proq bo'lganligi sababli yosh organizmning o'sishiga, taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Og'iz sutining tarkibida etarli miqdorda mineral moddalar bo'lishi ovqat hazm bo'lishida fermentativ jarayonni yaxshilash bilan birga suyak to'qimalarining hosil bo'lishini va mustahkamligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, og'iz suti tarkibida prolan va tuxumdonlardan ajralib chiqadigan follikulin gormonlari bo'lib, buzoqlar o'sishi va rivojlanishida katta rol uynaydi.

Og'iz sutining tarkibida ichki sekretiya bezlari tomonidan ishlab chiqariladigan gormonlar bo'lib, organizmda moddalar almashinuvini yaxshilaydi. Bular follikulin sut bezi taraqqiyoti, o'sishiga yordam beradi. Biz yukoridagilarni o'rgangan holda yangi dunyoga kelgan organizmning og'iz suti bilan 5-6 kun davomida 3-4 mahal bir kun oziklantirsak: birinchidan, oshkozon-ichak kasalliklaridan xolos bo'ladi yoki engil o'tadi. O'smay qolishining oldini olgan bo'lardik. Bundan tashqari, davolash uchun sarflanadigan dori moddalarini, dezinfeksiyalovchi vositalar uchun ketadigan iqtisodiy zarar tejab qolingan bo'lar edi.

Tashqi muhitning barcha shart-sharoitlari ichida eng muhimi sifatida hayvonlarni oziqlantirish tilga olinadi. To'g'ri oziqlantirish hayvonlarning sog'ligi va yuqori mahsuldorligini ta'minlaydigan kursatgich hisoblanadi. SHu sababli kasalliklarga qarshi kurashuvchanligini oshiradi, yosh hayvonlar normal o'sib rivojlanishining asosi hisoblanadi. YOmon oziqlantirish sharoitida kasallangan

hayvonda normal oziqlantirayotgan hayvonga nisbatan kasallik ancha og'ir kechadi. Oziqa sifatli bo'lishi zarur. Buning uchun ularni to'g'ri yig'ishtirish, saqlash va foydalanish zarur. Oziqaning buzilishiga - chirish, mog'orlash, muzlash, achish, don oziqalarining ko'karib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Tuproq, qum va boshqa aralashmalar bilan kuchli ifloslangan oziqa hayvonlar salomatligi uchun havflidir. Buzilgan va tarkibi noma'lum yomon sifatli oziqa bilan bug'oz hayvonlarda bola tashlash yoki hayvonlarda esa hazm qilishning buzilishi kuzatiladi. Buning natijasida yosh hayvonlar o'sishdan qoladi, ariqlaydi va hatto nobud bo'ladi.

Hayvonlar sog'ligi va mahsuldorligiga suv ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi sifatli suv rangsiz, hidsiz va ta'mi shirin bo'lishi lozim. Hayvonlarni faqat toza oqar suv yoki quduq suvi bilan sug'orish mumkin. Qishki vaqtlarda hayvonlarni molxonada $+8^{\circ} - 12^{\circ}\text{C}$ li suv bilan sug'orish aslo mumkin emas. Bunday suv bilan sug'orilganda hayvonlar shamollaydi, ularda oshqozon – ichak kasalliklari, tuyoqlarining revmatik yallig'lanishi va boshqa kasalliklar paydo bo'ladi. Bug'oz hayvonlarda sovuq suv tufayli bola tashlash ham kuzatiladi. Hayvonlarni sug'orishning eng yaxshi usuli mexanizatsiyalashgan usul (avtosug'orgichlar) hisoblanishi bejiz emas. Hayvonlar tomonidan is'temol qilinadigan sutkalik suv miqdori bir xil emas. Bu iqlim, yil fasli, havo harorati, bajariladigan ishi va mahsuldorligi, oziqa turi, sifati va miqdori kabi qator sabablarga bog'liq.

Musinov YA.X., Chalabaev A.J. (2009) ma'lumotlariga ko'ra chorva mollarini zoogigienik talablarga javob bermaydigan molxonalarda saqlash ularning mahsuldorligini 40% gacha kamayishiga, oziqa sarfining 35 % gacha oshishiga hamda ular orasida uchraydigan kasalliklarni 2-3 marta ko'payishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari noqulay mikroiklim ko'rsatkichlari chorvachilik madaniyati, mehnat unumdorligi, chorvadorlarning sog'lig'i va umumiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Chorvachilik binolarini loyihalashda yuqori mahsuldor qoramollarni etishtirish texnologiyasi asos qilib olinishi zarur. Bunda asosiy vazifa – mu'tadil mikroiklim ko'rsatkichlarini ta'minlash bilan birgalikda hayvonlarning fiziologik

holati hamda qurilishning injenerlik holatlarini e'tiborga olish zarur. Molxonalarda ventilyasiya talab darajasida bo'lmasa hayvonlar organizmida modda almashish jarayoni buzilib, mahsuldorligi pasayadi. Oxirgi yillarda qurilgan chorvachilik binolarida sun'iy ventilyasiyani qo'llash amaliyotga keng joriy qilingan. SHuni e'tiborga olib biz ishlab chiqarishda samarali usul bo'lgan – deflektorli tabiiy ventilyasiya qo'llaniladigan molxonalardagi mikroiklim ko'rsatkichlari me'yorlarini aniqlashga harakat qildik. Ishlab chiqarish amaliyotida molxonalarda havoning harorati, nisbiy namligi, zararli gazlar, molxonaga kiritilayotgan va chiqarilayotgan ventilyasiya havosining miqdorini me'yorda saqlash bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Tajriba uchun ajratilgan molxonalarda 1 s tirik vaznga to'g'ri keladigan toza havo miqdori, molxonadagi havo harorati, harakat tezligi, nisbiy namligi, zararli gazlari va bir bosh hayvonga to'g'ri keladigan molxona hajmining miqdorlari xo'jalik sharoitida yil fasllari buyicha o'rganilib zoogigienik me'yorlar bilan solishtirildi. Utkazilgan tajriba natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

7 - jadval

Molxonadagi mikroiklim ko'rsatkichlari

Ko'rsagichlar	Fasllar	Me'yor	Molxonada
Kiruvchi havo miqdori 1 s tirik vaznga (m^3/s)	Qish	16	4
	YOz	70	40
Harorat $^{\circ}S$	Qish	+ 10 $^{\circ}C$	+ 6 $^{\circ}S$
	YOz	+ 20 - 25 $^{\circ}C$	+ 25 - 30 $^{\circ}C$
Havoning harakat tezligi, m/sek.	Qish	0,5	0,1
	YOz	1,0	2,0
Nisbiy namlik, %	Qish	70 – 85	90
	YOz	50 – 60	40 – 50
Zararli gazlar, mg/m^3	Qish	10 – 20	20 – 30
	YOz	5 – 10	4 – 6
Bino hajmi (m^3)		30	20

Jadval ma'lumotlarining tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, 1 s tirik vaznga to'g'ri keladigan kiruvchi havo miqdori tavsiya etilgan me'yorga nisbatan 3 barobar kam bo'lgan. Molxonalar havosining harorati qish va o'tish davrida + 2 $^{\circ}$ –

4⁰C ga pasaygan bo'lsa, yozga kelib + 5⁰ – 10⁰ S darajaga yuqori bo'lganligini ko'ramiz. Havoning harakat tezligi va nisbiy namlik miqdorlari me'yorga nisbatan bir muncha yuqori ekanligi aniqlandi. CHorvachilik binolarini qurishda kam issiqlik o'tkazuvchi qurilish materiallaridan foydalanish iqtisodiy samara beradi. CHunki bu paytda hayvonlar tomonidan ajratiladigan issiqlik miqdori etarli bo'lib, qo'shimcha sun'iy isitish tizimidan foydalanish zarur bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha bir bosh hayvonga to'g'ri keladigan 20 m³ bino hajmi etarli bo'ladi. 1 bosh hayvonga to'g'ri keladigan bino hajmini etarli miqdorda ta'minlash, kam issiqlik o'tkazuvchan qurilish materiallari kabi biologik issiqlikni saqlashga yordam beradi. CHorvachilik binolarida mikroiklim ko'rsatkichlarini qoniqarli holatda bo'lishini ta'minlash ya'ni molxonaning quruq, issiq, yoqimsiz hidlar va elvizaksiz bo'lishi ventilyasiya havosining hajmiga bog'liq bo'ladi.

Suvonqulov Y.A. (2003) ma'lumotlariga ko'ra Samarqand viloyati xo'jaliklarida issiq iqlim sharoitida molxona va yayrash maydonchalarida havo haroratini pasaytirish choralaridan (ayvon, bostirma) foydalanganda buzoqlarning kunlik o'sishi va sigirlarning mahsuldorligini oshganligi aniqlangan.

Issiq iqlim sharoitida molxonalarda muayyan mikroiklim ko'rsatkichlarini saqlash hayvonlarni mahsuldorligi, tabiiy chidamlilik qobiliyatiga ta'sirini Musinov YA.X., CHalabaev A.J. (2005) o'z ilmiy izlanishlarida ularni saqlash usuli va yilning fasliga qarab o'zgarib borishini kuzatganlar.

Nuraliev S. (1995) aniqlashicha molxona haroratining +23⁰ - 26⁰C ga ko'tarilishi qoramollarning tana haroratini 0,5⁰ C ga yuqori bo'lib, sigirlarning mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatganligini aniqlab, mikroiklim ko'rsatkichlarining hayvonlarni boqish, saqlash usullariga bog'liq ekanligini o'rgangan.

Onegov A.P. va boshqalarning (1984) tekshirishlarida hayvonlarni 0⁰C va yuqori namligi bo'lgan molxonalarda saqlaganda yosh hayvonlarning o'rtacha kunlik o'sishi 9,26 – 28 %ga kamayib, oziqa sarfi 12-13 % ga, kasallanish holatlari 1,5-2 barobarga yuqori bo'lgan.

Olimlarning kuzatishlarida molxonalar havo haroratini -1,9⁰ - 5⁰S ga sovishi yosh mollarning o'rtacha kunlik o'sishini 2 %, kritik holatidan pastga tushishi 4 %

ga kamayishini, issiqlik hosil bo'lishini 21,4% yuqori bo'lib oziqaning ko'p sarflanishini Onegov A.P. va boshqalar (1984) kuzatishgan.

Pogrebiyak M.P. (1982) tajribasiga ko'ra molxona havosining har xil harorati molxonalarda saqlagan hayvonlarning fiziologik ko'rsatgichlariga ta'sir qilishi aniqlagan.

Kollesnikov I.K. (1977) molxonalarda havo haroratning $+23^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishi va havoning harakat tezligini 0,04 m/sek oshishi hayvonlarda issiqlik almashinuvining buzilishiga olib kelishini aniqlagan. Nafas olishi 5-6 marta, yurak urishi 100 martagacha, tana harorati $+37^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilishi kuzatilgan.

Umarova E. (2010) ma'lumotlariga ko'ra bozor iqtisodiyoti davrida chorvachilikni rivojlantirish va oziqa manbaini mustahkamlash omillaridan biri, tez shakllanib mamlakat ozuq – ovqat muammosini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etayotgan dexqon fermer xo'jaliklarida yosh qoramolarni etishtirishni ilg'or texnologiyasini joriy qilish hamda ishlab chiqarishda undan unumli foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Yangi tug'ilgan buzoq onasi bilan quruq somon to'shalgan dennikda 2 kungacha saqlanadi. Buzoq emishdan oldin onasining elini issiq suv bilan yuviladi. Og'iz sutining dastlabki bo'laklari sog'ib tashlanadi. Shunga e'tibor berish kerakki, buzoq birinchi bor emishda ko'p miqdorda og'iz sutini emib qo'ymasligi zarur. Buzoq og'iz suti bilan emizilgandan so'ng albatta kuniga 3-4 mahal sog'ib olish lozim, Dastlabki sog'ib olish sigir tuqqandan so'ng 10 soat mobaynida bajariladi. Buzoq dennikda onasi bilan saqlanganda uni lampa yoki issiq havo bilan quritish tavsiya etiladi. Shuningdek, buzoq infraqizil va ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirilmasligi kerak. Paratif kasalligiga chidamliligi uchun 1-2 kunligida konsentrlangan farmolkvasli vaksina bilan birinchi marta 1,0-1,5 ml miqdorda, 3-5 kunligida 1,5-2,0 ml miqdorda ikkinchi marta vaksinatsiya qilinadi. Ba'zan sutdagi vitamin va mikroelementlar miqdori buzoq organizmini talabini qondira olmaydi. Bunday sharoitda yangi tug'ilgan buzoqqa ikki oyligigacha haftasiga bir marta 5 ml miqdorida vitamin V_{12} berilib turishi kerak.

Keyingi veterinariya profilaktika chora – tadbirlari esa xo‘jalikning epizotiyaga qarshi rejasiga asosan o‘tkaziladi. Tug‘ilgandan 6-8 soatdan keyin yangi tug‘ilgan buzoq komissiya ishtirokida tortiladi, unga nomer, laqab qo‘yiladi va jurnaldagi ro‘yxatga o‘tkaziladi. SHu paytda ro‘yhatga olinganligi to‘g‘risida dalolatnoma tuziladi.

Tug‘ilgandan keyin uchinchi kunga buzoqlar bo‘limi yaqinidagi (5^o qiyalik qilingan) maydoncha, ochiq havoda pana qilib joylashtirilgan alohida uycha profilaktoriyada saqlash va parvarish qilish mumkin. Buzoqlar ochiq havoda uycha – profilaktoriyada saqlanadi, ularda uchraydigan oshqozon - ichak kasalliklari 30 % dan oshmaydi va engil shaklda 1-2 kun davomida o‘tib ketadi. Ichi ketadigan buzoqlarni davolashda 1 mahal sut ichirmay, beda pichani guli va barglaridan tayyorlangan, tuz solingan qaynatma qo‘llaniladi. Antibiotiklar esa nochor holatlarda ishlatiladi, xolos.

Buzoqlar normal o‘ssishi, rivojlanishi va semirishini ta‘minlaydigan me‘yorlarga asosan oziqlantiriladi. Profilaktoriyada saqlanayotgan buzoqlarga sut 3 mahal – ertalab soat 6⁰⁰ da, tushda 12⁰⁰ da va kechqurun 18⁰⁰ da ichiriladi. Ichiriladigan sut sifatiga alohida e‘tibor beriladi.

Normal holatdagi yangi tuqqan sigirning og‘iz suti sarg‘imtir rangli, 43-48^oT (terner bo‘yicha) kislotalikka, to‘yimli moddalarga boy bo‘lib, yosh buzoqning o‘ssishi, rivojlanishi va unda immunitet hosil bo‘lishida katta ahamiyatga ega. 10 kungacha buzoqlarga o‘z onalarining suti ichiriladi, so‘ng yig‘ma sutga o‘tkaziladi. Har bir buzoq uchun uycha raqami bilan nomerlangan chelak va so‘rg‘ich biriktiriladi. Buzoqlarga faqat sog‘lom sigirlar suti ichiriladi. Sutning harorati ichirilishidan oldin +36 - 38^oC bo‘lishi kerak. 11 kundan boshlab buzoqlar sifatli beda va tabiiy o‘tlar pichaniga o‘rgatiladi. Har bir buzoq 50 kun mobaynida o‘rtacha 35 kg pichan is‘temol qiladi. Buzoqlar 20 kunligidan boshlab maxsus omixta emga o‘rgatiladi. Sekin asta uning miqdori ko‘paytiriladi. 1 oylik buzoq sutkasiga 400-500 g, 2 oyligida esa 1 kg gacha omixta em beriladi. 40 kun mobaynida bir buzoqqa 19 kg em sarf bo‘ladi. YOsh organizmning mineral moddalarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ularga bo‘r, osh tuzi va boshqa

mineral qo'shimchalar beriladi. Sut tovar xo'jaliklarida buzoqlarni O'zbekiston CHorvachilik ilmiy – tadqiqot institutining ratsioni bo'yicha tayyorlanadigan sun'iy sutga 11-kunligidan boshlab o'rgatiladi. Sun'iy sut tayyorlash imkoniyati bo'lmagan xo'jaliklarda buzoqlarga 30 kunligidan boshlab yog'i olingan sut ichiriladi. Buzoqlar 60 kunligida uycha –profilaktoriyada guruh qilib saqlanadigan maydonchalarga o'tkazilgandan so'ng, uycha va uning oxurlari yaxshilab tozalanadi. Eski to'shamasi olib tashlanadi. So'ngra uychalarni ko'tarib qo'yib, 3-45 % li, harorati +60-70°C li o'yuvchi natriy eritmasi bilan yoki ohak bilan dezinfeksiya qilinadi. Dezinfeksiyadan so'ng 3 soat shamollatiladi. 1m² yuzaga 1 l eritma sarflanadi. Uycha qurigandan so'ng uni joyiga tushirib, ohak bilan oqlanib qo'yiladi. Ularga somon va qipiq to'shama solib, yana buzoqlar uchun foydalanish mumkin.

Xo'jalikda xaftada bir marta sanitariya kuni o'tkaziladi. YOsh buzoqlarni yil mobaynida individual tipdagi uycha – profilaktoriyalarda, ochiq havoda tarbiyalash bizning Respublikamiz xo'jaliklarida qo'l keladi.

Mavlonov S., Sattorov O'., Elmuradov B. (2010 y.) ma'lumotlariga ko'ra Respublikamizda chorva mollarini ko'paytirish va ularni mahsuldorligini oshirish uchun qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. CHorvachilikni yuritishning ilg'or texnologiyalarini joriy qilish va chorva mollarini zotini yaxshilash uchun keyingi yillarda Respublikamizda xorijiy mamlakatlardan ko'plab yuqori mahsuldor naslli qoramollar import qilinmoqda. Ammo chorva mollarining tuyoq sonini ko'paytirish, ularning mahsuldorligini oshirish, umuman chorvachilikni rentabelli sohaga aylantirishda chorva mollarining yuqumli va yuqumsiz kasalliklari jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda.

Amirov SH. (2010) ma'lumotlariga ko'ra Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan umumiy sutchilarning qariyb 99% qoramolchilik tarmog'iga to'g'ri keladi. Aholini sut va sut maxsulotlari bilan taminlash uchun yuqori mahsuldor sigirlar podasini yaratish muhim hisoblanadi. Sigirlarning mahsuldorligiga ko'p omillar tasir qiladi. Bu omillarni genetic va tashqi muhit omillariga ajratish mumkin. Sigirlarning sut mahsuldorligi deganda, sut sog'imi, uning tarkibidagi

yogʻ va oqsil miqdori kabi koʻrsatkichlar tushiniladi. Ushbu miqdoriy koʻrsatkichlar doimiy boʻlmay, laktatsiya savrining davomiyligi, laktatsiya oylari boʻyicha, sut sogʻimining koʻkatilishi hamda turgʻunligi kabi omillar taʼsirida oʻzgarib turish xususiyatiga ega.

Qoramolchilikni rivojlantirish etarli miqdorda hajmli oziqalar bilan taʼminlash, ilgʻor fan va texnika yutuqlarini joriy etish, molarni barcha kasalliklarga boʻlgan immunitetining mustaxkamligi va stresslarga chidamligi hamda katta hajmda yuqori energiyali oziqalarni isteʼmol qilish talablari qoʻyiladi. (Ibragimov YU. 2011).



2 – rasm. Hoʻjalikda jamgʻarilgan dagʻal oziqalar gʻarami

Maqsudov I. (2008) taʼkidlashicha, qoramolchilikni rivojlantirish mustahkam oziqa bazasini yaratish bilan bogʻliq. Fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xoʻjaliklarning barchasida qoramollarni oziqlantirish meʼyor darajasida emas, shu sababli respublika aholisini sut va sut mahsulotlariga boʻlgan talabini toʻliq qondirish imkonini bermaydi. Bu borada birinchi galda fermer xoʻjaliklarida almashlab ekishni joriy etib, yil davomida oziqa moʻlligini tashkil etish kerak.

CHorva mollari uchun oqsil, vitamin va boshqa biologik faol moddalar bilan toʻla taʼminlaydigan oziqa bazasini yaratish, oziqalar sifatini yaxshilash, em-xashaklardash toʻlaroq foydalanish va oziqa isrofgarchiligini kamaytirish kun tartibidagi vazifadir. Gʻalla va oqsilga boy bolgan beda, soya singari oziqabop

ekinlar maydonini kengaytirish, oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan chorvachilikda keng ko'lamda foydalanishni yanada ko'paytirish mo'ljallanadi. Sifatli em-xashak etishtirish va uni asrashning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, oziqa etishtirish masalasini yangi sifatga ko'taradi. Konsentrat oziqalarni saqlaydigan elevatorlar, o't uni hamda donador omixta emlarni saqlaydigan maxsus joylarni barpo qilish, chorvachilik sohasini uzluksiz oziqa bilan ta'minlash omillaridan biridir.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalarda oziqa va oziqlantirishning roli o'ta muhim ekanligi qayd etilgan. Oziqa va oziqlantirishning ta'siri hayvonning zoti va kelib chiqishiga nisbatan yuqori degan fikrga kelgan. Oziqalarning sifati ya'ni uning to'yimliliigi hayvonning mahsuldorligiga ta'sir etuvchi asosiy omil, shuning uchun oziqalarni tayyorlash texnologiyasiga e'tiborni kuchaytirish zarurdir. Har xil oziqalarning to'yimliliigini turlicha bo'lishi ayniqsa o'simliklar dunyosidan kelib chiqqan oziqalarda namoyon bo'ladi.

Nasimov E., Naxalbaev A. (2005) ma'lumotiga ko'ra sog'in sigirlarning sut mahsuldorligi hamda buzoqlarning o'sish va rivojlanishiga ratsion tarkibidagi oqsilga bog'liq, ratsionda hazmlanuvchi protein me'yorda bo'lganda, kam bo'lganga nisbatan 3 kunlik sut berishi 18 %ga ortadi.

Quziev I., Naxalbaev A. (2005) shuni ta'kidlaydi sog'in sigirlarning sut mahsuldorligi oziqlantirish darajasi bilan bir qatorda naslini bildiruvchi qon tarkibidagi oqsil tiplariga ham bog'liq. Qon tarkibida AA oqsil tipi bo'lsa VV va AV oqsil tipiga qaraganda mahsuldorligi 20-25 %ga yuqori bo'lishligini ko'rsatgan.

Hayvonlar ratsionida proteinning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ularning mahsuldorligi ko'p jihatdan to'la qimmatli proteinlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Katta qorindagi biosintez jarayonida esa vitaminlar, mineral va boshqa faol moddalar bilan ta'minlanganligiga bog'liqligini Hafizov I (2006) aniqlagan.

Hayvonlarn oziqlantirishda azotsiz ekstraktiv moddalarni ham hisobgan olish muhimdir, ushbu guruhga xom yog' va xom kletchatkadan tashqari barcha azot saqlamaydigan moddalar kiradi. Bu to'yimli moddalar uglevod vakillari bo'lib, ularning asosiy qismlarini kraxmal, qand, pentoza va boshqa moddalar


tashkil etadi. Ma'lumki o'simlik organizmining asosiy qismini uglevodlar tashkil etadi (o'rtacha 75 % va undan ko'p). SHuning uchun ular asosiy energiya manbai hisoblanadi. SHu jihatdan qishloq xo'jalik hayvonlarini me'yor asosida oziqlantirishni tashkil etishda ratsionning umumlashtirilgan azotsiz ekstraktiv moddalar bilan ta'minlanganligi alohida hisobga olinadi (www.zookorm.ru).

Saidov U. (2010) yozishicha yangi tug'ilgan buzoqlarni dastlabki kunlardan muvozanatlashtirilgan ratsion bilan oziqlantirish ularning sog'lom o'sishi va rivojlanishini hamda kelgusida yuqori mahsuldor sigir yoki buqa etishtirishni ta'minlaydi.

Urg'ochi tanalarni bug'oz bo'lguniga qadar va bug'ozlik davrida to'g'ri oziqlantirish ularning irsiy mahsuldorlik qobiliyatlarining oshishida asosiy omil sanaladi. Embriinning to'laqonli rivojlanishi va tug'ilgan buzoklarda ham mahsuldorlik qobiliyatlari oshishini kafolatlaydi.

Sog'iladigan sigirlarni muvozanatlashtirilgan ratsion bilan oziqlantirish esa ularni sut mahsuldorligini, suti tarkibidagi yog' va oqsil moddalarining oshishini, vaqtida bug'oz bo'lishini (servis davrining qisqarishi) va sun'iy urug'lantirishning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi.

Buzoqlarni o'sish va rivojlanish davridagi oziqlantirish tartibi - ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra og'iz sutining birinchi porsiyasida buzoq organizmini tashqi muhitdan muhofaza qiluvchi immunoglobulinlar juta ko'p bo'ladi. Keyingi porsiyalarda esa immunoglobulinlar miqdori pasayadi. Sigirning elinida 0,5-1 soatdan ko'p muddatda turib qolgan og'iz suti tarkibidagi immunoglobulinlar miqdori ham kamayadi. CHunki elinda og'iz sutidagi immunoglobulinlar parchalanadi va foydali ta'sir kuchi pasayadi. SHu bois buzoqqa tug'ilgandan keyingi yarim-bir soat ichida albatta o'sha birinchi porsiya og'iz sutini ichirish shart. CHunki tashqi muhitga chiqqan buzoq organizmi himoyasiz bo'ladi va nafas olish bilan birga qabul qilgan mikroorganizmlarning salbiy ta'sirlariga karshi kurashishi kerak bo'ladi. SHu sababdan tug'ilgan buzoqning og'iz sutiga ehtiyojini to'la qondirish maqsadga muvofiq.



3 - rasm. YAngi tug'ilgan buzoq

Immunoglobulinlar nima va ularning vazifasi nimalardan iborat? Oddiy tarzda tushuntiradigan bo'lsak, immunoglobulinlarning tarkibi mukammal oqsildan iborat bo'lib, ular spetsifik va nospetsifik guruhlarga bo'linadi. Mukammal oqsillar, ya'ni immunoglobulinlarning skeletini tuzishda almashmaydigan barcha aminokislotapar to'liq ishtirok etadi.

Spetsifik immunoglobulinlar biron-bir yuqumli kasallikka qarshi organizm tomonidan ishlab chiqariladigan modda bo'lib, hayvon o'sha kasallikka qarshi emlangandan so'ng himoya sifatida ishlab chiqariladi va u aniq muddatlarda, ayrim holatlarda bir umrga hayvon organizmini mazkur kasallikdan himoya qiladi. Nospetsifik immunoglobulinlar esa hayvon organizmining umumiy himoya vositasi hisoblanadi.

Hayvon organizmining tashqi muhit ta'sirlaridan to'liq himoyalanishi uchun uning organizmida sintez qilinadigan immunoglobulinlarning tarkibida almashmaydigan aminokislotalarning barchasi ishtirok etishi zarur.

Dastlabki 3-4 kun har 4 soat oralig'ida ona sutini ichirish kerak bo'ladi. Keyingi kunlarda sut ichirishni 2-3 marotabaga keltirish zarur. Kunlik sut 1 ichirish miqdori 4 - 4,5 kilogrammni tashkil etadi. Lekin shuni aytish joizki, buzoq organizmining himoya tizimi normal ta'minlanishi uchun birgina og'iz suti kifoya qilmaydi. Chunki buzoq onasining organizmidagi immunoglobulinlar, agar

ularning bug‘ozlik davrida oziqlantirish to‘la ratsionli bo‘lmagan bo‘lsa, to‘la sifatli bo‘lmasligi mumkin. Masalan, immunoglobulinlar to‘la sifatli bo‘lishi uchun mol oziqasi tarkibi almashilmas barcha aminokislotalar bilan to‘liq ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Lekin O‘zbekistan Respublikasi hududida o‘sadigan oziqa ekinlarining tarkibida almashilmas ikki aminokislota, ya‘ni metionin va lizinning miqdori nihoyatda kam yoki umuman bo‘lmaydi. Bundan tashqari, oziqa tarkibida tegishli vitaminlar, makro va mikroelementlar ham etarlicha bo‘lmaydi. SHundan kelib chiqqan holda yosh buzoqning normal o‘ssishi va rivojlanishini ta‘minlash maqsadida ularni oziqlantirishda qo‘shimcha chora-tadbirlarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi.

Tug‘ilgandan keyingi 1-4 kunlari o‘z onasining og‘iz suti bilan ta‘minlash ertalab, soat 7.00 da, tushki 13.00 va kechki 19.00 da oziqlantirish o‘z onasi sutini ichirishni emizish orkali va ertalabki ichirishdan 2,5 soat o‘tgandan so‘ng va tushki sut ichirishdan keyin 3 soat o‘tgach emizgich orqali ichirish tavsiya etiladi. Jami 5 marta sut ichiriladi. Emizgich bilan ichiriladigan og‘iz suti +37-38°S ilitilgan holatda beriladi. Birinchi va ikkinchi kunlari bir kunda 5 marotabagacha 10 kg tirik vazni hisobiga 1 litrdan, 3-4 kunlari tug‘ilgan buzoqning holatiga qarab, aynan yuqorida ko‘rsatilgan soatlarda og‘iz sut mikdorini har 10 kg tirik vazni hisobiga 1,2-1,3 litrgacha ko‘tarish mumkin. To‘rtinchi kundan boshlab buzoq erkin eyishi uchun Kalvofit Myusli omixta emi oxuriga solib qo‘yiladi. Kalvofit Myusli omixta emi tarkibi barcha almashilmas aminokislotalar, vitaminlar, makro va mikroelementlar bilan boyitilgan konsentrat xisoblanadi. Buzoq organizmining sog‘lom saqlanishi hamda immunologik himoyasini ta‘minlaydi. Kunlik ichiriladigan sut mikdori 10 kg tirik vazn hisobiga 1,3-1,4 litrdan isitilgan holda (+37-38°S) beriladi. Ushbu konsentratni xo‘jalik sharoitida tayyorlash ham mumkin. Buning uchun arpa, bug‘doy, makkajuxori, soya, javdarning yormalari va qo‘lda normativlar asosida qo‘shilgan vitaminlar, makro va mikroelementlar hamda metionin va lizin aminokislotalaridan iborat komponentlar bo‘lishi kerak bo‘ladi va ularning tegishli proporsiyalardagi aralashmasi omixta em hisoblanadi. Kalvofit Myusli

yoki qo'lda tayyorlangan omixta em buzoqning 8 haftalik yoshigacha beriladi. 20 kunlikdan boshlab buzoqning oxuriga maydalangan quruq beda pichani ham qo'yladi. 5 – 10 kunlarda sut berish bir kunda 3 martagacha, 11-60 kunlari 2 martagacha tushiriladi. Buzoq to'rt haftalik bo'lganda Kalvofit Myusli omixta emi o'rniga Kalvofit-20 beriladi.

Buzoqning yoshi 60 kunlik bo'lgunga qadar yuqorida ko'rsatilgan normativlar asosida yog'i olinmagan ona suti beriladi. Keyingi 61-90 kunlargacha har kuni 2 martadan har ichirganda 2 litrdan Groulak (ZSM) (Mustang kompaniyasi mahsuloti) so'rg'ich orqali isitilgan holda beriladi.

Bu sun'iy sutning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

8 - jadval

Groulak sun'iy sutining tarkibi

Komponentlar	Qo'shish foizi, %
Kalvofit-20	20
Sariq makkajuxori	17
Arpa	15
Bug'doy	18
Suli	9
Kungabokar kunjarasi	20
Monokalsiy fosfat	1
Jami	100

Ushbu konsentratning ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

9 - jadval

№	Tuyimlilik ko'rsatkichlari	
1	Almashinuvchi energiya, Mj	11,30
2	Quruq modda g/kg	870
3	Xom protein, g/kg	190
4	Kraxmal, g/kg	310

5	Qand, g/kg	65
6	Kalsiy, g/kg	8,2
7	Fosfor, g/kg	7,5

Kalvofit-20 konsentratining tarkibi soya va raps shroti, kokos yongʻogining magʻzi, kokos va sitrus jomi, A, D, E vitaminlari, niatsin, mineral moddalar va aminokislotalardan iborat. Kalvofit-20 buzoklarning 6 oylik yoshigacha beriladi.

Olimlarning taʼkidlashicha (www.cpm-dairy.com), hajmli oziqalar tarkibidagi kletchatkaning (ONDK) effektivligini hisobga olish yoki bu xususiyatni oshirish katta ahamiyatga ega. Kletchatkaning asosiy qismi hajmli, yaʼni pichan, poxollar va boshqa oziqalar bilan etkaziladi. Ushbu oziqalarning vegetativ organlarida katta oʻlchamdagi poyalar borligi bilan ajralib turadi. SHuning uchun bu qismlarni maydalab hayvonlarga edirish maqsadga muvofiqdir. Agar oziqa juda ham mayda boʻlsa kavsh qaytarishga xojat boʻlmaydi va buning natijasida soʻlak bezlari etarli darajada soʻlak ishlab chiqarilmay, oqibatda soʻlak tarkidagi buferli moddalar katta qorindagi Ph muhitni neytrallashtira olmaydi. Bu oʻz vaqtida katta qorindagi foydali bakteriyalarning faoliyatini keskin susaytiradi.

SHunday qilib, tajriba natijalar shuni taqozo etadiki, dagʻal-poyali oziqalarning uzunligi 5 sm dan oshmasligi lozimdir, ratsion tarkibida poyalarning uzunligi 3 sm dan kam maydalanishi natijasida sigirlarning kavsh qaytarish faoliyati pasayishi bilan sut yogʻligi ham kamayadi.

Sobirov T., M.Mannapovlar (2010) sigir va boshqa qishloq xoʻjalik hayvonlari (sut emizuvchilar) tuqqandan keyin birinchi kundan sut bezlari chiqaradigan mahsulot ogʻiz sutidir. Ogʻiz suti yosh, yangi tugʻilgan organizm uchun juda zarur va kerakli mahsulot hisoblanadi. Ogʻiz suti oʻzining kimyoviy tarkibi, fizik va fiziologik xususiyatlariga koʻra oddiy tabiiy sutdan farq qiladi. U oʻzining tuzilishi va tarkibi jihatidan yosh organizm uchun ulkan biologik ahamiyatga ega. SHu sababli yangi tugʻilgan organizm uchun yagona oziqa hisoblanadi.

Og'iz suti tarkibida oqsillar (15-16 %) va globulin (12,5-13 %) bo'lib, ular organizmda antitela tashuvchi hisoblanadi va yosh organizmni har xil kasalliklardan saqlaydi. Og'iz sutining tarkibidagi oqsillarning miqdori kundankunga kamayib boradi va taxminan 4-5 kun, uzog'i bilan 7 kundan keyin oddiy sutning oqsili miqdoriga tenglashadi. Og'iz suti dagi mineral moddalar 1,21- 1,22 % ni tashkil etadi, ya'ni oddiy sutdagiga nisbatan 2 baravar ko'p. SHuningdek, uning tarkibida kalsiy va bir qancha mikroorganizmlar ham mavjud. Birinchi kunda sog'ib olingan og'iz sutining tarkibidagi quruq modda 3 baravar ko'p (32,5 %gacha), shuning uchun og'iz sutining zichligi yuqori. Buzokdarga og'iz sutini berishning muhimligi bir qator biologik omillar bilan xarakterlanadi. Dastlabki og'iz suti yuqori kislotalik xususiyatga ega bo'lganligi uchun shirdonda gramm musbat sut kislotali mikroflora faoliyati va kupayishi uchun ijobiy muhit yaratadi. Sigirdan birinchi kuni olingan og'iz suti tarkibida buzokda amalda bo'lmagan immunglobulinlar miqdori ko'p bo'ladi. Ular organizmda himoya funksiyasini bajaruvchi antitelalar tashuvchilari hisoblanadi.

Buzoklar birinchi kundan boshlab og'iz suti tarkibidagi komponentlarni fermentativ parchalashsiz o'zlashtiradi. Organizmga zararlangan og'iz bo'shlig'i orqali turli mikroorganizmlar tushishining oldini olishda sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilish kerak.

Birinchi kundagi og'iz suti tarkibida A vitamini oddiy sutga nisbatan 25-30 baravar ko'p bo'ladi. Sog'ishning oxirgi tomchilaridagi A vitamini miqdori ham boshlang'ich paytdan ko'ra 2-3 marotaba ko'pni tashkil etadi.

Og'iz suti tarkibida 20% gacha oqsil bo'lib, uning asosiy qismi immunoglobulinlarni tashkil qiladi. Uning tarkibida magniy tuzlari ko'p miqdorda bo'lib, ichaklarni bo'shashtirib, oshqozon va ichak ritmini normallashtiradi.

Og'iz sutini yosh organizmga be rishda hisobni to'g'ri tuzib har bir kg tirik vazniga nisbatan 40- 50 ml hisobida berish lozim. Og'iz sutini dastlabki 2-5 kunlari yangi tug'ilgan buzoqqa kuniga 1-2 litrdan 3 mahal berish maqsadga muvofiq. Buzoqlarni oshkozon-ichak kasalliklaridan himoyalash yoki oldini olish uchun maxsus so'rg'ichli idishlarda sekinlik bilan tana haroratiga moslab ichirish

lozim. Bu vaqtda so‘lak bezlari ishi, sulak ajralish tezlashadi. Natijada oshkozon-ichak qisqarishlari jadallashib, so‘lak tarkibidagi lipotik fermentlar sut tarkibidagi sut yog‘ini parchalaydi. SHirdon fermentlari faqatgina sut va og‘iz suti oqsillarini parchalaydi, o‘simlik oqsillari esa bu davrda yaxshi hazm bo‘lmaydi, uglevodlarni parchalash ham chegaralangan bo‘ladi. Bu vaqtda sut emadigan buzoqlarda qatqorin ishga tushmagan bo‘ladi. Qandli diabet va yuqumli dispepsiya kasalligini keltirib chikaruvchi ikroorganizmlarga qulay sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, yosh hayvonlar nimjon, ta’sirchan va kasalliklarga tez chalinuvchan bo‘lganligi sababli ularni optimal reja asosida oziqlanishini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiena qoidalariga to‘liq rioya qilish maqsadga muvofiq. Og‘iz sutini vitaminlarga, oqsillarga va makro va mikroelementlarga boy bo‘lganligini inobatga olib o‘z vaqtida to‘g‘ri ichirish lozim.

Tajribalarda aniqlanishicha, sog‘in sigirlar ratsionida barcha to‘yimli moddalarning etarli bo‘lishi, me’yorda oziqlantirish hayvonlar mahsuldorligini ko‘payishiga olib keladi. Me’yor asosida oziqlantirilmagan hayvonlar organizmida modda almashinuvi buzilishi natijasida hayvon oziqadan samarali foydalanmaydi, mahsuldorligi kamayadi, tarkibi va sifati yomonlashadi hamda hayvon har xil kasalliklarga duchor bo‘ladi. Ana shularni hisobga olib, hayvonlarni oziqa me’yori asosida oziqlantirish talab etiladi. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, sog‘in sigirlarga oziqa me’yori belgilashda 20 dan ortiq ko‘rsatkich hisobga olinadi. Bularga ratsion tarkibidagi quruq modda, quruq modda tarkibida energiyaning miqdori, protein, xazm bo‘luvchi protein, yog‘, qand, kraxmal, klechatka, vitamin A, (karotin), vitaminlar D va E hamda makro va mikroelementlar kiradi.

Sog‘in sigirlar ratsionida quruq moddaning miqdoriga e’tibor beriladi. O‘rta hisobda sog‘in sigirning har 100 kg tirik vazniga 2,8 – 3,2 kg quruq modda to‘g‘ri kelishi lozim, bu sersut sigirlarda 3,5 – 3,8 kg, rekordchi sigirlarda esa 4,0- 4,5 ga teng bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sigir qancha ko'p sut bersa, ratsiondagi 1 kg quruq moddaning tarkibida shuncha ko'p energiya bo'lishi kerak. O'rta hisobda 1 kg quruq modda 0,65 oziqa birligi, ko'p sut beradigan (25-30 kg) sigirlarda esa bu ko'rsatkich 1,5 ga teng bo'lishi tavsiya etiladi.

Sigirlardan sog'ib olinadigan sutning miqdori ratsiondagi yuqori biologik qiymatga ega bo'lagan proteinning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Sut tarkibidagi oqsil qon bilan boradigan aminokislotalar hisobidan hosil bo'ladi. Tarkibida 35 gramm oqsil saqlaydigan 1,0 l sut ishlab chiqarish uchun elin bezlari qondan 67 gramm azotli birikmalarni qabul qiladi. Sog'in sigirlar ratsionida protein etishmaganda sigirning suti va yog'lilik darajasi kamaygan, hayvon oriqlab, umumiy sog'ligi yomonlashgan. Ana shularni hisobga olib sog'in sigirlar ratsionida proteinni etarli bo'lishini ta'minlash zarur.

Engil hazmlanuvchi uglevodlardan kraxmalning miqdori ham sog'in sigirlar ratsionida hisobga olinib, u 1 oziqa birligiga 115-135 g atrofida bo'lishi lozim, yoki kraxmalning qandga bo'lgan nisbati 1:1,5 bo'lishi kerak.

Uglevodlardan kletchatka dag'al xashaklar quruq moddasining asosiy qismini (20-40 foizgacha) tashkil etib, u sellyuloza, gemitsellyuloza va o'simlikning qotiruvchi qismi lignin, kutin va suberin kabilardan tashkil topadi. Kletchatka katta qorinda oziqalarni me'yorda xazm bo'lishida qatnashadi, kletchatka oshqozonda bakteriyalar ta'sirida parchalanadi. Buning natijasida oshqozonda uchuvchi yog' kislotalari (propion, sirka kislotasi) hosil qiladi.

Sutning serqaymoq bo'lishida kletchatkaning axamiyati bor. SHu sababli sog'in sigirlar ratsionida kletchatkaning miqdoriga e'tibor beriladi. Kletchatkaning miqdori sigirning sut mahsuldorligiga qarab belgilanadi: 10 kg gacha sut bergan sigirga 28 % kletchatka quruq moddaga nisbatan 11- 20 kg sut olinganda 24 %, 20-30 kg sut sog'ilganda 20 %, 30 kg ko'p sut beradigan sigirlarga ratsion quruq moddasi tarkibida 18 – 16% kletchatka berilishi kerak. Sog'in sigirlar ratsionidagi 1,0 oziqa birligiga 300 - 400 g atrofida kletchatka bo'lishi lozim. Bu ko'rsatkich ko'p sut beradigan sigirlarda oz miqdorda oz sut beradigan sigirlarda esa teskarisi bo'ladi.

Sigir sutining serqaymoq bo'lishida ratsion tarkibidagi yog'ning ahamiyati birinchi o'rinda turadi. Ana shuni hisobga olib sog'in sigirlar ratsionidagi yog'ning miqdori e'tiborga olinadi. Sog'in sigirlar ratsionidagi quruq moddaning 2 - 4% ini yog' tashkil etishi yoki sut bilan ajralib chiqadigan yog'ning umumiy miqdorini 60 - 65% i ratsiondagi oziqalar tarkibida bo'lishi lozim. Sut tarkibida ajralib chiqadigan yog'ning qolgan 35 - 40% i yuqorida eslatilgandek, protein va uglevodlarning parchalanishi oqibatida sut bezlarida hosil bo'ladi.

Sigirlar ratsionidagi har oziqa birligiga quyidagi miqdorda makroelementlardan berish tavsiya etiladi; osh tuzi 6,5 – 7,5 g, kalsiy 6,5 - 7,4 g, fosfor 4,5 – 5,5 g, magniy 2,4 – 1,5 g, kaliy 8,1 – 6,7 g, oltingugurt 2,8 - 2,1 g. Sog'in sigirlar ratsionida kalsiy bilan fosfarga katta e'tibor berilib, ularning bir – biriga bo'lgan nisbati o'rganiladi. Kalsiyning fosfarga bo'lgan nisbati 1,8 - 1,5 bo'lishi mumkin.

Sog'in sigirlar ratsionida vitaminlarni etarli bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Vitaminlarni etarli bo'lishi sigir tanasida kechadigan barcha fiziologik jarayonlarni, uning salomatligini me'yorda bo'lishini ta'minlashi bilan servitamin sut etishtirishda muxim ahamiyatga ega. SHu sababli sigirlar ratsionida A, D, E vitaminlari hisobga olinadi. Sog'in sigirlar ratsionidagi har bir oziqa birligiga 40 - 50 mg karotin, 1,0 XB (xalqaro birlikda) D va 30 - 40 mg E vitamini beriladi.

Sog'in sigirlar tuqqandan keyin 10 kun tug'riqxonada saqlanadi, sigir tuqqan zahoti 0,5 – 1,0 kg unsimon oziqani (donlar yormasi, omuxta em) 8- 10 kg suvda pishirib atala qilib berish tavsiya etiladi. SHunday qilinganda sigir tug'ish jarayonida tanasidan ter bilan yo'qotgan suvni oladi va tez hazm bo'ladigan atala uni energiya bilan taminlaydi, sigirning yo'ldoshi tez tushadi. Tuqqan sigirga 2-3 kunligida hohlaganicha miqdorda yuqori sifatli pichan va 1,0 – 1,5 kg omuxta em beriladi, 4-5 kundan keyin sigirning qishgi ratsioniga shirali oziqalar, yozda esa ko'k o'tlardan oz - ozdan qushib 10 - 15 kun ichida sigir to'liq ratsion asosida oziqlantira boshlanadi. Sigir tug'irixxonadan iyyirish bo'limiga o'tkazilgach, sut mahsuldorligini va har kuni sutini ko'paytirishiga qarab ratsionga 2 - 3 ob qo'shimcha beriladi. Bu hol to sigir sutini ko'paytirishni to'xtatgunga qadar davom

etadi. Iydirish bo'limida sog'in sigirlarni oziqlantirish to'g'ri tashkil etilsa, ular birinchi 100 kunda yillik sutning 40 - 50% ini beradi.

Do'stqulov S.D., A.Raximovlar (2007) tomonidan Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi SH.Rashidov nomli shirkat xo'jaligining naslchilik fermasida, qizil cho'l zotini angler zoti bilan chatishtirib olgan uchinchi bug'in duragaylaridan 10 bosh urg'ochi va 10 bosh erkak duragay buzoqlarning tug'ilishidan 6 oygacha bo'lgan o'sish va rivojlanishi o'rganilgan.

Tajriba natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

10 - jadval

Qizil cho'l zotini angler zoti bilan chatishtirib olingan uchinchi bug'in duragaylarining mutloq va nisbiy o'sishi.

YOshi, oy hisobida	Urg'ochi buzoqlar				Erkak buzoqlar			
	t/v, kg	Davr ichidagi o'sish	Kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish %	t/v, kg	Davr ichidagi o'sish	Kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish %
To'g'ilganda	30,4				32,3			
1-oylik	53,0	22,6	753	74,3	54,0	21,7	723	67,1
2- oylik	74,0	21,0	700	39,6	76,0	22,0	733	40,7
3- oylik	95,0	24,0	800	32,4	99,0	23,0	766	30,2
4- oylik	116,0	21,0	700	22,1	123,0	24,0	800	24,2
5- oylik	138,0	22,0	733	18,9	146,0	23,0	766	18,6
6- oylik	161,0	23,0	766	16,6	169,0	23,0	766	15,9

Jadval ma'lumotlarining tahliliga ko'ra buzoqlarning tirik vazni 6 oylikkacha urg'ochi buzoqlarda o'rtacha 129,6 kg gacha, erkak buzoqlar 136,7 kg gacha oshgan yoki kundalik qo'shimcha o'sish urg'ochi buzoqlarda o'rtacha 720 grammni va erkak buzoqlarda 759 grammni tashkil qilgan.

Eng yuqori kundalik o'sish 3-4 oylik buzoqlarda uchragan. Bu zoqlar yoshining ortib borishi bilan nisbiy o'sish yoki o'sishning tezligi pasayib borgan.

Erkak buzoqlar urg'ochi buzoqlarga nisbatan ancha tez o'sib yirik vazinga ega bo'lgan. Tajribadagi buzoqlarga 50 kun davomida 300 kg qaymog'i olinmagan sut, keyinchalik 4 oylikgacha 300 kg qaymog'i olingan sut ichirilgan.

Tajriba o'tkazish uchun uchinchi bug'in avlodlaridan 10 bosh urg'ochi 10 bosh erkak tanachalar ajratib o'sish, rivojlanish va ekster'er ko'rsatgichlari teng oziqa va asrash sharoitida o'rganildi. Olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

11 - jadval

YOshi, oy hisobida	Erkak buzoqlar				Urg'ochi buzoqlar			
	Vazni, kg	Mutloq o'sish	Kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish %	Vazni, kg	Mutloq o'sish	Kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish %
Tug'ilganda	31,5 $\pm$ 0,546	-	-		29,2 $\pm$ 0,49			
1-oylik	32,4 $\pm$ 0,87	20,9	696	66,5	29,2 $\pm$ 0,49	20,6	686	70,54
3- oylik	97,8 $\pm$ 1,27	45,4	504	58,40	92,3 $\pm$ 0,92	42,5	472	85,34
6- oylik	149,5 $\pm$ 2,56	51,7	574	58,90	148,9 $\pm$ 3,83	56,6	628	61,32
9- oylik	178,6 $\pm$ 2,86	29,1	323	19,96	175,8 $\pm$ 2,98	26,9	298	1806
12- oylik	212,4 $\pm$ 4,73	33,8	375	18,52	218,9 $\pm$ 6,49	43,7	778	24,85
15- oylik	290,1 $\pm$ 4,70	77,7	863	36,58	280,7 $\pm$ 7,33	61,8	686	28,23
18-oylik	356,3 $\pm$ 4,90	68,2	735	22,81	350,6 $\pm$ 7,84	69,9	776	24,90

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinmoqdakim teng yoshli erkak va urg'ochi tanalarning o'sish va rivojlanishi orasida qisman bo'lsada farq sezilmoqda. Umuman olib qaraganda erkak tanalarda mutloq o'sish ko'rsatgichlari yuqori bo'lmasada, ammo o'sish quvvati tanalarda kuchliroq bo'lishi ko'rinmoqda.

Uchinchi bug'in tanalarda ma'lum bo'lishicha ikkinchi bug'in tanalarga nisbatan o'zgaruvchanlik ko'rsatgichi birmuncha farq qilmoqda. Tanalarning

o'sish davrlari bo'yicha dinamikasini o'rganish natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

12 - jadval

Tanalarning o'sish davrlari bo'yicha dinamikasi

Davrlar	Erkak buzoqlar			Urg'ochi buzoqlar		
	Mutloq o'sish	Kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish %	Mutloq o'sish	Kunlik o'sish, g	Nisbiy o'sish %
To'g'ilgandan 6 oylikgacha	118,0	655	374,60	119,7	665	409,93
6 - 12 oylik	62,9	349	42,07	70,0	388	47,01
12 - 18 oylik	143,9	799	67,74	131,7	731	60,16
To'g'ilgandan 18 oylikgacha	324,8	1080	1031,1	321,4	1078	1100,68

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, tanalarning jinsi tafovut bilan o'sish quvvati orasida farq bor. Erkak tanalarda mutloq o'sish ko'rsatgichi tengdosh urg'ochi tanalarga nisbatan 12-18 oylarda va to'g'ilgandan 18 oyligigacha bo'lgan davrlarda ancha yuqori bo'lgan. O'sish quvvati esa urg'ochi tanalarda tug'ilganidan 6 oyligigacha va 6-2 oyli o'sish davrida sezilarli holatda kuchli ekanligi namoyon bo'ldi.

Danila V. (2009) ma'lumotlariga ko'ra - veterinariya patologiyasida yosh qishloq xo'jalik hayvonlarining yuqumsiz kasalliklari muhim o'rin tutadi. Yangi tug'ilgan hayvonlarning organizmi o'zgaruvchan bo'lishi va tashqi muhit omillariga tez moslasha olmasligi ular parvarishini qiyinlashtiradi. SHuningdek, organizm tizimlarining deyarli barchasi katta yoshli hayvonlarnikidan funksional va morfologik jihatdan farq qiladi.

YOsh hayvonlar past haroratga sezuvchandir. Yangi tug'ilgan cho'chqa bolalarining teri osti yog' qatlami deyarli bo'lmay, ularda fizik termoregulyasiya kuchsiz ri vojlangan bo'ladi. SHuning uchun ular moddalar almashinuvidan hosil

bulgan energiyani tanasida saqlashga qodir emas. Bundan tashqari, cho'chka bolalarida tanasining vazniga nisbatan katta bo'lganligi sababli ularda tashqi muhitga issiklik uzatish katta hayvonlardagiga qaraganda ancha yuqori. Agar yangi tug'ilgan cho'chqa bolalarini $+18-20^{\circ}\text{S}$ haroratli joyga joylashtirilsa, ular terisining harorati $+1,5-3^{\circ}\text{S}$ ga, $+12^{\circ}\text{S}$ joyda esa $+5-6^{\circ}\text{S}$ ga pasayadi.

Bir vaqtning o'zida jigar va to'qimalardagi glikogen, qondagi glyukoza miqdori keskin kamayib ketadi, qonning morfologik tarkibi o'zgarib, organizmning himoya kuchlari tushib ketadi. Natijada cho'chka bolalari kasallanadi va o'ladi.

Buzoqlar va cho'chqa bolalarida termoregulyasiya mexanizmi tug'ilgandan 6-10 kun o'tgach ishlay boshlaydi. Faol ishlashi esa buzoqlarda 10-20 kun, cho'chqa bolalarida 30 kundan so'ng boshlanadi. SHuning uchun birinchi o'n kunlikda kasallangan yosh hayvonlarning 80 % o'ladi. SHundan 26 % shamollashdan kelib chiqadigan turli yuqum siz kasalliklarga to'g'ri keladi. Buning oldini olish ularni optimal haroratli binolarda sakdash va ratsional oziqlantirishni taqozo etadi.

CHorvachilik binolarida zoogigienik ko'rsatkichlar optimal me'yorlarga to'g'ri kelishi kerak. 20 kunlikgacha bo'lgan buzoqlar uchun optimal harorat $+16-20^{\circ}\text{S}$, 4 oylikgacha bo'lgan cho'chqa bolalari uchun $+18-22^{\circ}\text{S}$ teng. Buzoqxonalarda haroratning o'zgarib turishi 5°S dan, havo harakat tezligining o'zgarishi esa 0,1 - 0,3 m/sek dan oshmasligi kerak.

Postnatal profilaktikada eng muhimi yangi tug'ilgan buzoqlarga birinchi uvuz suti ichirishdir. U buzokda emish refleksi paydo bo'lgandan so'ng, lekin tug'ilgandan 1-2 soat kechiktirmasdan beriladi. Uvuz sutini ertaroq ichirish yosh hayvonlarda oshqozon-ichak buzilishlarini 40-50 % ga kamaytiradi.

Buzoqlarga uvuz sutini berishning muhimligi bir qator biologik omillar bilan tavsiflanadi. Dastlabki 8-10 soat ichidagi uvuz suti yuqori kislotalik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun shirdonda grammmusbat sut kislotali mikroflora faoliyati va kupayishi uchun ijobiy muhit yaratadi. Sigirdan birinchi kuni olingan uvuz suti tarkibida buzoqda amalda bo'lmagan immunglobulinlar miqdori ko'p bo'ladi. Ular

organizmda himoya funksiyasini bajaruvchi antitelalarni tashuvchilar hisoblanadi. Buzoqlap dastlabki kunlarda uvuz suti tarkibidagi komponentlarni birlamchi fermentativ parchalashsiz o'zlashtiradi. Ichaklar bar'erini yuqori o'tkazuvchanligini hisobga olgan holda yosh hayvonlar organizmiga zararlangan uvuz suti orqali turli mikroorganizmlar tushishini oldini olish uchun sa nitariya-gigiena qoidalariga qat'iy rioya etish talab etiladi.

Birinchi kungi uvuz suti tarkibidagi A vitamin miqdori keyingi 30 kun davomida olinadigan miqdorga teng. Sog'ishning oxirgi porsiyalarida uvuz suti tarkibidagi A vitamin miqdori o'rtacha uch martaga kupayadi. Bu esa sigirni to'liq cog'ib olish zarurligini bildiradi.

Uvuz suti tarkibida 10-20 % oqsil bo'lib, uning asosiy qismini immunglobulinlar tashkil etadi. Bundan tashqari, u magniy tuzlariga boy bo'lganligi bois bo'shashtiruvchi xususiyatga ega, bu esa ichakni dastlabki kallardan tez tozalanishini ta'minlaydi.

Uvuz suti birinchi ichirilishida buzoq vaznining 6 - 8 % ni tashkil etish kerak. Dastlabki 2 kunda bir marta ichirish uchun 1 kg tana vazni uchun o'rtacha 40-50 ml uvuz suti ichiriladi. U buzoq tana vaznining 1/5-1/6 qismini tashkil qilgani ma'kul. Dastlabki 2-3 kunlari buzoqqa kuniga 4-5 marta 1,5-2 l uvuz suti bergan yaxshi. Keyingi kunlar esa 2-2,5 l dan 3 marta yoki kamroq ichiriladi.

Uvuz sutini elin yoki maxsus so'rg'ichli idishlarda sekinlik bilan ichirish buzoqlar oshqozon-ichak kasalliklarini oldini olishda katta ahamiyatga ega. YAngi tug'ilgan buzoklarda so'lak bezlari emish vaqtida faollashadi. Bunda ajralgan so'lak uvuz suti bilan yax shilab aralashadi va kichik porsiyalar bilan shirdonga tushadi. Natijada uvuz suti engil fermentativ ishlanuvchi massaga aylanadi. Hosil bo'lgan uvuz sutining zardobi o'z tarkibida ingichka ichakda surilib, organizmning spetsifik hamda nospetsifik chidamliligini hosil qiluvchi immun globulinlarni saqlaydi. Bundan tashqari, buzoqlar so'lagi o'z tarkibida katta hayvonlarnikidan farqli o'laroq lipotik fermentlarni saqlaydi. Bu fermentlar uvuz suti tarkibidagi sut yog'ini parchalaydi.

YAngi tug'ilgan buzoqlarda uvuz suti qizilo'ngachdan qizilo'ngach noviga

tushadi. U erdan esa katta qorinni chetlab o'tib, shirdonga boradi. Qizilo'ngach novi yuqori chetlari faqatgina so'rish vaqti yopiluvchi yarim yopiq nayni eslatadi. CHetlarining yopilishi emish vaqti bilan muvofiq keladi. Buzoqlar uvuz sutini chelakdan ichganda qizilo'ngachning chetlari yopilmaydi, natijada sutning bir qismi hali ishlamayotgan katta qoringa tushadi. Bu erda esa uvuz suti buziladi. Bundan tashqari, katta porsiyalar bilan tushgan uvuz suti shirdon fermenti ximiozin ta'sirida yirik, tez hazmlanmaydigan guvalachalarga aylanadi. Ular shirdonda ko'p turib qoladi va buziladi. Bu esa toksik mahsulotlar hosil bo'lishi va hazmlanish jarayonining buzilishiga olib keladi.

SHirdon fermentlari faqatgina sut va uvuz suti oqsillarini parchalaydi, o'simlik oqsillari esa bu davrda hazmlanmaydi. Uglevodlarni parchalash faolligi ham cheklangan bo'ladi. Masalan, sut qandi hayvon tug'ilgandan boshlab hazm tizimida o'zlashtirila boshlasa, maltozaning o'zlashtirilishi esa 21 kunlikdan so'ng boshlanadi. Katta yoshli hayvonlarda uglevodlar katta qorindagi mikroorganizmlar, infuzoriya ta'sirida bo'ladi. Sut emuvchi buzoqlarda kata qorin hali ishlamasligi sababli ular ichagidagi qand diareyani keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarga qulay muhit yaratadi.

SHunday qilib, yosh hayvonlar yuqumsiz kasalliklarini oldini olish bu ular uchun optimal oziqlanish rejimini yaratish va yangi tug'ilgan yosh hayvonlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda parvarishlashni taqozo etadi.

Sirdaryo viloyatidagi «Turon» fermer xo'jaligida turli sut mahsuldorli sigirlardan tug'ilgan buzoqlardan har qaysisi 10 boshdan iborat ikki guruh tashkil qilinib, ularning o'sish ko'rsatkichlari o'rganildi. I guruhda sut mahsuldorligi 3750 kg, II guruhda esa 2300 kg bo'ldi. Tajriba guruhlardagi buzoqlarni o'stirish to'laqiymatli oziqlantirish va bir xil usulda saqlash uslubi buyicha olib borildi. Quyidagi jadvalda tajriba guruhlaridagi buzoqlarning tirik vazni keltirilgan.

Buzoklarning yoshi buyicha tirik vaznining o'zgarishi

YOshi, oylar	G uruxlar			
	I		II	
	M+t	CV,%	M±m	CV,%
Tug'ilganda	30,2+0,32 .	4,4	23,4±0,26 v	4,16
3	88,4+0,86	3,58	76,2±0,62	2,86
6	156,4+1,28	2,74	140,6±1,19	2,96
12	260,8x2,12	2,86	246,8+1,88	' 2,62
18	362,4+2,11 .	2,2	336,4+2,14	" 2,52
Birinchi otalanishda	330,0±2,48	2,62	338,4^2,12	2,48
Birinchi tug'ishda	438-2,46	2,22	418,6+3,86.	3,36

Jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, I guruhdagi buzoqlar II guruhdagilarga nisbatan tug'ilganda tirik vazni buyicha 6,8 ($R>0,999$); 3 oyligida 12,2 ($R>0,999$); 6 oyligida 15,8 ($R>0,999$); 12 oyligida 15,4 ($R>0,999$); 18 oyligida 18,2 ($R>0,999$) kg; birinchi otalanishda 11,6 ($R>0,999$) kg; birinchi tug'ishda 20,2 ($R>999$) kg yuqori bo'lgan.

Vaholanki, 6-12 va 18 oyliklarida I guruhdagi buzoqlarning tirik vazni Bushuev zotining andoza talablariga teng va yuqoridir. AMMO II guruhdagi buzoqlarning o'sish ko'rsatkichlari ancha past bo'lgan.

Demak, kam sut mahsuldorli sigirlardan tug'ilgan buzoqlarni maqsadga muvofiq alohida jadal boqish usulida o'stirish lozim. Biz olib borgan tadqiqot natijalari E.A.Novikov - 1971, N.I.Kleymenov - 1975, X.Roy., Djon – 1982) tadqiqotlari natijalariga o'hshash bo'lgan.

Akmalxonov SH. (1993) tadbikot ishlarida golshtinlashtirilgan sigirlarning gematologik ko'rsatkichlari yoz faslida boshqa fasllarga nisbatan ko'tarilgan. Jumladan, kuz davrida gemoglobin miqdori 9,50 g /%, eritrotsitlar - 6,50 mln/mm³ va leykotsitlar 8,23 ming/mm³ ga teng bo'lsa, yoz oyida ular tegishli 10,60 g /%, 6,85 mln/mm³ va 9,36 ming/mm³ ga ko'tarilgan.

Xaitov R. (2008) ma'lumotlariga ko'ra ba'zi fermer va dehqon xo'jaliklarida

mol sonini, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirishga buzoq olish va uni parvarishlash jarayonidagi ayrim kamchiliklar, yosh hayvonlarda uchraydigan turli kasalliklar salbiy ta'sir ko'rsatmokda. Ular orasida keltirayotgan zarariga ko'ra, hayvonlarning, ayniqsa, yosh hayvonlarning turli kasal liklarga chalinishi yuqori o'rinda turadi. Buni bartaraf etish uchun kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish, rivojpanish yullarini aniklash zarur. Buning uchun esa, avvalo, mollarning biologik xususiyatlari hakida tasavvurga ega bo'lish lozim.

E'tiborda tutish kerakki, voyaga etmagan hayvonlar, xususan, buzoqlarga nisbatan endi tug'ilganlari qonida va to'qimalararo suyuqliklarida organizmning turli zararli mikroorganizmlar ta'siriga chidamliligini oshirishda ishtirok etuvchi maxsus oqsillar - gammoglobulinlar bo'lmaydi. Bu oqsillar ularga ona qornida rivojlanayotgan davrida ham o'tmaydi, lekin buzoq tug'ilishiga bir necha kun qolganda va tug'ilgandan so'ng sigir elinida hosil bo'lib, og'iz (gelegay) sutida ko'plab to'plana boshlaydi va u bilan oziqlangan buzoqlar qoniga singadi. SHu tariqa organizmda "Immun fond" yoki chidamlilik fondi hosil bo'ladi. U organizmning ayniqsa, turli kasallik chaqiruvchi mikroorganizmlarga chidamliligini oshiradi.

Og'iz suti bilan buzoqlar qoniga o'ggan maxsus oqsillar ko'pincha 6-12 soatdan 36 soatgacha saqlanadi. SHu bois, og'iz sutining shifobaxshlik ta'siri ham tez orada pasayib ketadi. Himoya oqsillari sigirlarning birinchi sog'imi sutida 4-5 - sog'implari sutlaridagidan 60-80 marta ko'p bo'ladi. Demak, buzoqlar og'iz sutini qancha tez, barvaqt olsalar, shuncha foydali. SHu bois ularga bu sutni toza, harorati +37-39° darajadan past bo'lmagan holatda asta-sekin ichirish lozim.

Buzoqni emishga qo'yishdan oldin ona sigir elinini dezinfektor eritmali iliq suv bilan yuvish yoki dezinfektorni iliq suv yoxud soda eritmasida ho'llangan sochiq bilan yo bo'lmasa salfetskada artib, tozalash zarur. Bu jarayonda elin atrofi juni yuzasi, elin terisi ham mikroorganizmlardan tozalanadi.

Tajribalar ko'rsatishicha, 100 ml qonida 1 gramm gammaglobulin saqlangan buzoqlarning turli mikroorganizmlarga chidamliligi yaxshi bo'ladi. Tug'ilganidan so'ng 12 soat davomida onasi bilan bo'lgan buzoqning qonida gammaglobulinlar

miqdori 1,3-1,5 grammni tashkil etadi. Tug'ilgan vaqtida onasidan ajratib olinib, og'iz suti idish(chelak)lar vositasida ichirilsa, u tez sovib qolishi bois, buzoqlar qonida gammaglobulinlar miqdori 0,5 gramm kamayadi.

Demak, muayyan vaqt onasi bilan bo'lib, og'iz sutini to'g'ridan - to'g'ri emish buzoqlarning himoya qobiliyati etarli darajada bo'lishini ta'minlaydi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, buzoqlarga tug'ilganidan 0,5-1,5 soat o'tmasdan og'iz suti ichirilsa, me'da-ichak tizimi faoliyati faollashib, kasallanishining oldi olinadi.

Buzoqlar ikki kunlik bo'lgunicha og'iz suti orqali maxsus himoya oqsillari (gammaglobulinlar)ni ko'plab olish qobiliyatiga ega. SHu bois, bu davrda ularga har kuni kamida turt- besh marotaba 1,5-2 litrgacha og'iz suti ichirish zarur.

Buzoklarni og'iz suti bilan boqish ularning ovqat hazm qilish tizimi kasalliklaridangina emas, balki keyinchalik nafas olish tizimi kasalliklaridan ham himoya qilishga yordam beradi. Tajribalar ko'rsatadiki, og'iz suti berishga e'tiborsizlik bilan qaralgan buzoqlar unga etarlicha tuyingan buzoqlarga nisbatan 88 % ko'p kasallikka chalinadi: birinchi turdagi buzoqlar orasida bu ko'rsatkich 96% ni tashkil etsa, ikkinchisida atigi 7 % uchrashi aniqlangan. SHuning uchun og'iz suti bilan kam oziqlangan buzoqlar orasida o'lim holati ko'p bo'ladi.

YOsh hayvonlar sog'lom o'sishida molxonalar havosi ham alohida ahamiyatta ega. CHunki endigina tug'ilgan buzoqlar nafas ola boshlagach, havo bilan avval o'pkasiga, keyinchalik boshqa a'zolariga, ayniqsa, me'da-ichak yullariga ko'plab mikroorganizmlar tushishi mumkin. Ular 2-3 soat o'tgach, tez ko'paya boshlaydi. Agar buzoqlar o'z vaqtida etarli miqdorda og'iz suti olmasa, mikroorganizmlardan zararlanadi. Bunday hol ko'pincha kechasi tug'ilgan buzoqlarda tez-tez uchrab, ularning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Elini yallig'langan (mastitli) sigirlarningog'iz sutini buzoqlarga ichirish qat'iy taqiqlanadi. Bunday sigirlarning bolalarini shu paytda tuqqan sigirlarning og'iz suti bilan boqish kerak. Buning uchun sovutgich (xolodilnik)da saqlangan sutkali og'iz suti zahirasidan isitib foydalangan ma'qul.

Buzoqlar sog'lom, tez o'sishi va rivojlanishi uchun ularni nur ta'sirida

muntazam isitib turish zarur. Buning uchun profilaktoriyalarda “IKUF-1” yoki “LUCH” asboblari (ultrabinafsha nurlatgichlar) o‘rnatilishi lozim.

YOsh, sog‘lom buzoqlar parvarishi gigiena-sanitariya qoidalariga qat’iy rioya qilishni talab etadi. Buning uchun har bir fermada barcha talablarga javob beradigan, maxsus seksiyalarga bo‘lingan to‘g‘riqxonalar bo‘lishi kerak. Ular har 30-45 kunda tozalanib, yuvilib turilishi, devorlari, pollari, asbob-uskunolari va boshqa buyumlari dizenfeksiya qilinishi zarur. To‘g‘riqxonalarda sigirlar tug‘ishiga 8-12 kun qolganda va tuqqanidan so‘ng 8-10 kun alohida turishiga mo‘ljallangan keng, yorur 3-5 seksiyali alohida bo‘lma (dennik)lar bo‘lishi kerak. Ko‘pgina fermalarda bir zallik umumiy profilaktoriyalar mavjud. Yangi tug‘ilgan buzoqlar 12-20 kungacha saqlanishi zarur bo‘lgan bu profilaktoriyalarning ko‘pchiligi, afsuski, gigiena-sanitariya talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki u erda turli yosh va holatdagi buzoqlar saqlanadi. Ular orasida surunkasiga kasallanib, tuzalayotgan buzoqlar ham, tuzalgan buzoqlar ham, endigina tug‘ilgan buzoqlar ham bor. Natijada chidamliligi (reaktivligi) past bo‘lgani bois, yangi tug‘ilgan buzoqlar profilaktoriya havosidagi zararli mikroorganizmlar ta’siriga tez uchrab, ular organizmida, ayniqsa, me‘da-ichak tizimida bunday mikroorganizmlar ko‘payishi sababli kasallanadi, qolaversa, boshqa buzoqlar uchun ham kasallik tarqatuvchi manbaga aylanadi.

SHuning uchun profilaktoriyalar bir necha seksiyalarga bo‘linib, o‘rtasida yog‘ochdan to‘siq devorlar qo‘yilishi, har bir seksiyada alohida eshik, 4-5 buzoqqa mo‘ljallangan ventilyasiya, kanalizatsiya bo‘lishi zarur. Masalan, xo‘jalikda har birida o‘ntadan buzoq saqlanadigan to‘rtta seksiya bor. 1-seksiyaga birinchi to‘rt kun ichida tug‘ilgan o‘nta buzoq qabul qilinadi. 2, 3 va 4 - seksiyalar ham shu tarzda to‘ldiriladi. SHunday qilinsa, 2-seksiyaga buzoqlar qabul qilina boshlaganida 1-seksiyadagi buzoqlar 10-14 kunlik bo‘ladi. Ular buzoqxonalarga ko‘chirilib, 1-seksiya tozalanib, dizenfeksiyalanib, yana buzoqlarni qabul qilishga tayyorlanadi. Qolgan seksiyalarda ham ish xuddi shu tarzda tashkil qilinadi.

Demak, sog‘lom buzoq olib, uni talab darajasida o‘stirishga barcha texnologik, gigiena, sanitariya, umumiy profilaktika, oziqlantirish va saqlash

qoidalariga qat'iy rioya qilingandagina erishish mumkin.

YU.G.Abovyan (1990) genetik kelib chiqishi bilan bir biridan keskin farq qilgan, 3 oylik buzoqlarni ajratib, ularni 20 oyligigacha qon tarkibidagi umumiy oqsil miqdorini o'zgarishini o'rgangan. Olingan natijalarni tahlil qilib shunday xulosa qilganki, barcha o'sish davrida (3,6,12,20 oylik) qora-ola bilan golshtin zotini chatishma xayvonlari kavkazning qo'ng'ir, qora-ola va kavkazni qo'ng'ir zoti bilan golshtinni chatishtirish natijasida olingan chatishma hayvonlaridan umumiy oqsil miqdori bo'yicha ustun bo'lishgan. Xususan oqsil 20 oylikda qora-ola x golshtinda 77,7 g/l bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha ular kavkazning qo'ng'ir zotidan 8,9 g/l (12,9%), qora-oladan 2,7 g/l (3,4 %) va kavkazning qo'ng'ir x golshtn chatishmasidan 5,3 g/l (7.3%) o'zib ketishgan. Chatishma hayvonlarda umumiy oqsilning ko'pligi ularni organizmda modda almashish jarayoni jadal kechishidan dalolat beradi.

Eshbo'riev B. (2009) ma'lumotiga ko'ra qonning gemotologik ko'rsatkichlari nafaqat qoramollarning mahsuldorligi balki o'sish va organning ish qobiliyati bilan ham bog'liqdir.

Qondagi eritrotsitlar soni birinchi xo'jalikda tekshirishlar boshida sigirlar bug'ozligining 7 - oyida, o'rtacha $5,08 \pm 0,60$ mln/mkl, ikkinchi xo'jalikda $4,86 \pm 0,7 - 4,94 \pm 1,0$ va uchinchi xo'jalikda $5,24 \pm 0,1$ mln/mkl ni tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning ya'ni bug'ozlikning oxiriga kelib, shunga mos ravishda o'rtacha $4,74 \pm 1,3$, $4,90 \pm 0,8$ va $4,58 \pm 0,25$ mln/mkl gacha, tekshirishlarning boshida gemoglobin $92,5 \pm 1,17$, $94,8 \pm 2,13$ va $77,8.2,6$ g/l dan $84,2 \pm 2,1$, $74,8 \pm 1,5$ va $75,7 \pm 2,0$ g/l gacha kamayishi kuzatildi. Adabiyotlarda yod, mis, kobalt, temir, marganets kabi mikroelementlar etishmovchiligi eritrotsitlar soni va gemoglobin sintezining kamayishi bilan kechishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tekshirishlarning boshida qondagi glyukozaning konsentratsiyasi xar uchala xo'jalikdagi bug'oz sigirlarda fiziologik mevyorlardan ancha kam bo'lib, tekshirishlar davomida xam bu ko'rsatkichning kamayib borishi qayd etildi. Sigirlar qonidagi glyukozaning konsentratsiyasi tekshirishlar davomida birinchi

xo'jalikda o'rtacha 2,31 mmol/l, ikkinchi va uchinchi xo'jalikda - 2,14 va 2,08 mmol ni tashkil etdi.

Birinchi xo'jalikdagi sigirlar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirishlarning boshida, ya'ni bug'ozlikning 7-oyida fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lib, o'rtacha $73,4 \pm 2,1$ g/l bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib $63,5 \pm 2,1$ g/lgacha kamayishi, ikkinchi xo'jalikda esa sigirlar bug'ozligining oxirgi ikki oyi davomida fiziologik meyyorlardan ancha kam bo'lishi ya'ni o'rtacha 66,2 g/l bo'lishi qayd etildi.

Uchinchi guruhdagi bug'oz sigirlarda qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirishlarning boshlanishida fiziologik me'yorlar chegarasida (o'rtacha 71,6 g/l) bo'lishi, bug'ozlikning oxiriga kelib, dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha 4,6 g/l ga ko'payganligi ma'lum bo'ldi. Bu holatni bug'oz sigirlar ratsionining oqsil - konsentrat tipida ekanligi va konsentrat oziqalarning asosiy qismi tarkibida 54 foizgacha protein saqlovchi paxta shroiti tashkil etishi bilan izohlash mumkin.

Ernst L.K. va boshqalar (1974), T.N.Venediktovalarning (1978) ta'kidlashicha chorvachilik komplekslari sharoitida buqachalar yuqori mahsulotli, mustahkam konstitutsiyali, xar xil stress omillarga berilmaydigan, ya'ni yuqori texnologik xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak, aynan ana shunda fe'l-atvor ko'rsatkichlari qul keladi.

Kulikova A. (2002) qora-ola zotiga mansub qoramollarning etologik xususiyatlarini o'rganib, ushbu ko'rsatkichlar qoramollarni zoti, yoshi, fiziologik holati va mahsuldorlik ko'rsatkichlar bilan bog'lik holda o'zgaradi degan xulosaga kelgan. Bu A.K.Kaxarov va boshqalarning (2009) fikrlariga mosdir.

Musinov YA.X., CHalabaev A.J., Islomov G'.P. (2013) ma'lumotlariga ko'ra zamonaviy chorvachilikni intensiv rivojlantirish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish chorvachilik binolari, hayvonlarni saqlash usullari hamda hayvonlarning biologik xususiyatlaridan samarali foydalangan holda mehnat unumdorligini oshirishga asoslangandir.

CHorvachilik fermalarini qurilishi va ularda hayvonlarni saqlash uchun optimal sharoit yaratish katta rol o'ynaydi, zero busiz ularning genetik

imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan mahsuldorlik va ekologik toza mahsulot olishga erishib bo'lmaydi. SHuning uchun chorvachilik fermalarida tegishli muhit sharoitini yaratishga alohida e'tibor beriladi. Ayni vaqtda hayvonlarning sog'lig'i va organizmining holatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni qanchalik ta'sir ko'rsatishini nazorat qilib borishga e'tibor beriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari texnologiyasida eng muhim sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilgan holda buzoqlarni saqlash, boqish va oziqlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish muhim vazifa hisoblanadi. Buzoqlarni o'sish – rivojlanishini o'rganish ko'p jihatdan ularni saqlash, boqish, oziqlantirish va qanday parvarish qilish usullariga bog'liq bo'ladi. Buzoqlar juda past va yuqori harorat ta'siridan himoyalangan bo'lishi kerak, chunki keskin haroratda organizmda turli o'zgarishlar ro'y beradi. Buzoqlarni sovuq binolarda saqlash zararli bo'lib, ancha ortiqcha energiya sarf bo'lishiga olib keladi. Haroratni haddan tashqari yuqori bo'lishi hayvonni bo'shashtirib, mahsuldorligini kamaytirib yuboradi.

CHorvachilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda hayvonlarning o'sish-rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan eng asosiylari ularni saqlash, boqish va oziqlantirish hisoblanadi. Buzoqlarni zooveterinariya talablariga javob beradigan sharoitda saqlab o'sish - rivojlanishini hisobga olgan xolda oziqlantirish tajribaning asosiy vazifasidir. Buzoqlar tug'ilganidan to 10 - kunligigacha onasi bilan saqlanadi. Keyin ular ajratilib alohida kataklarda buzoqxona profilaktoriyda saqlanib to 1 oyligigacha qo'l bilan og'iz suti keyin esa yog'i olingan sut berilib boqiladi.

Tajriba uchun Past darg'om tumani "K. Eldor" chorvachilik fermer xo'jaligi sharoitida o'stirilayotgan buzoqlardan 10 bosh buzoq ajratib olindi. Tajribadagi buzoqlar saqlanadigan buzoqxona hamma zoogiginik va veterinariya sanitariya talablariga javob beradi. YOnida yayratish maydonlari ham mavjud. Buzoqxonada har bir bosh buzoq uchun $0,8-1,2 \text{ m}^2$, yayratish maydonida esa har bir boshga 12 m^2 dan yayrash uchun joy ajratilgan. Buzoqlar uchun har bir boshga $0,4 - 0,6 \text{ m}$ uzunlikda oxur o'rnatilgan. Buzoqxonadagi

jami buzoqlar yosh buzoqlarni oziqlantirish sxemasi asosida oziqlantirildi. Xo‘jalikdagi urg‘ochi buzoqlar poda tarkibini to‘ldirish, erkaklari bo‘rdoqiga boqish uchun parvarishlanadi. Tajriba uchun analoglar buyicha ajratib olingan 10 bosh buzoq 5 boshdan 2 guruhga bo‘lindi. Birinchi guruh yoki tajriba guruhi erkin xolda yayratish maydonida soyabonli ayvon ostida saqlangan bo‘lsa, ikkinchi nazorat guruhi buzoqxonada saqlanib, kuniga 2 soatdan yayratish maydoniga chiqarildi. Tajribadagi buzoqlar xo‘jalikda qabul qilingan oziqlantirish sxemasi asosida oziqlantirilib, bunda xo‘jalikda etishtiriladigan oziqalar asosiy o‘rinni egallagan. Buzoqlarni saqlash va oziqlantirish zoogigienik me‘yor va qoidalarga to‘g‘ri keladi.

Xusainov V.R. va boshqalarning (2005) Boshqirdiston Respublikasi «Ufimskoe» tajriba ishlab chiqarish xo‘jaligi sharoitida o‘tkazgan ilmiy ishlarining natijalaridan shuni bilsa bo‘ladiki, qora-ola va Bushuev zotli buzoqlarining sut davridagi fe‘l-atvor ko‘rsatkichlari yosh bo‘yicha o‘zgarib turgan. Masalan 1,5 oylik buzoqlar yotishga sutkalik vaqtni 971 daqiqasini yoki 67,4 % ni sarflagan bo‘lsa, 4 oylukda bu ko‘rsatkich 637 daqiqa yoki 44,2% ni tashkil qilgan. YOtib dam olish holati ko‘proq kechasi ya‘ni kechqurun 23-dan ertalab soat 5-gacha bo‘lganligi aniqlangan. Hayotining dastlabki kunlarida buzoqlar tik turish holatiga 20-30 daqiqa va faol harakt faoliyatigi 30-40 daqiqa sarflashgan.

Kavsh qaytarish holatining davomiyligi asosan ratsion tarkibidagi klechatkaga bog‘lik bo‘lar ekan. Aytaylik beda unidan tayyorlangan granula bilan oziqlanganda 128 daqiqa davomida kavsh qaytargan bo‘lsa, yirik maydalangan bedadan tayyorlangan granulani iste‘mol qilgandan so‘ng kavsh qaytarish holati 483 daqiqa davom etgan. Qora-ola zotli buzoqlar tik turish, oziqlanish, yotish va boshqa fel-atvor xolatiga tegishli 360 (26,8%), 185 (12,8%), 797 (55,4%), 95 (6,8%) daqiqa sarflashgan bo‘lsa ularning tengqurlari bushuev zotli buzoqlar mutonosib ravishda 545 (37,8%), 121 (8,5%), 647 (44,9%), 127 (8,8%) daqiqa sarflashgan. Demak dam olish va oziqa iste‘mol qilish holatiga qora-ola zotli buzoqlar ko‘proq vaqt sarflashgan. Ularning o‘sish va rivojlanishi ham nisbatan jadal bo‘lgan.

G.S.Kozirov va boshqalar (2006) SHimoliy Osetiya-Alaniya Respublikasining tabiiy iqlim sharoitida qora-ola va golshtinlashtirilgan xar xil genotipli ($1/2$, $3/4$ va $7/8$) chatishma hayvonlarni oziqlanish, kamfort (harakat) va fiziologik fe'l-atvorini o'rgangan. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki hayvonlarni fe'l-atvor ko'rsatikichlariga yilning fasli, saqlash sharoiti, oziqa tarkibi va turi, oziqlantirish soni va mahsuldorlik darajalari ta'sir qilgan.

Hayvonlar bog'lab boqilganda, yaylovga boqilganga nisbatan oziqlanishga ko'proq vaqt sarflashgan. Bu farq uncha katta bo'lmay 0,5-dan 1,0% atrofidadir. Bog'lab boqilganda chatishma hayvonlar sof zotliga nisbatan tegishli 16,0; 24,4 va 23,0 daqiqa ko'p vaqt sarflashgan. Ammo kavsh qaytarishga aksincha sof zotli qora-ola hayvonlari o'rtacha 6,0 daqiqa ko'p vaqt sarflashgan. Xuddi shuningdek sof zotli hayvonlar chatishma tengqurlariga qaraganda ko'proq yotishgan va uxlashgan. SHunday qilib golshtinlashtirilgan hayvonlar asosiy vaqtni oziqlanish holatiga sarflar ekan.

Taqlil qilingan ilmiy adabiyot ma'lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, chorvachilikni, ayniqsa uning asosiy tarmog'i bo'lgan koramolchilikni barqaror rivojlantirish bo'yicha mavjud bo'lgan genetik potensialni yuzaga chiqarishda qo'shimcha imkoniyatlardan biri qoramollarni o'sish va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish hisoblanadi.

YOsh hayvonlarni yuqori oziqlantirish darajasida boqish ular tanasida erta semirishni chaqirib urchish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

YOsh qoramollar bir davrda o'sishdan qolishi keyingi davrda ma'lum darajada qoplash xususiyatiga ega.

Buning sababi biroz o'sish susayishdan keyin jadal o'sishga organizmda moyillik bo'ladi. Sut va sut-go'sht yunalishidagi buzoqlar birinchi 2 - 3 oyligida 500 - 600 g o'sadi. 6 - 8 oyligida jadal o'stirilgan tanalarning kelgusi 6 - 7 oyligidagi kunlik o'sishi 400 - 500 g bo'lsa kifoya.

YOsh qoramollarni o'stirishda oziqlantirish tipi muhim ahamiyat kasb etadi. YOsh qoramollar o'sish va rivojlanishiga saqlash sharoitlari ham ta'sir qiladi. Ular uchun +10 - 12°S harorat va 75-80 % nisbiy namlik me'yor xisoblanadi.

Buzoq tug'ilgandan keyin, 1-1,5 soat davomida dastlabki sut ichishini ta'minlash kerak. Bunda yirik buzoqlarga 2 kg, kichiklariga 0,75-1kg sut ichiriladi. Keyingi kunlarda profilaktoriyada buzoqlarga sut berishni tana vaznining 1/5 -1/4 qismida berish mumkin. YAngi tug'ilgan buzoqlarning rezistentligini oshirish maqsadida vitaminli preparatlardan foydalaniladi.

Buzoqlar yangi tug'ilganda ularning tanasida termoregulyasiya to'liq shakllanmagan bo'ladi, shuning uchun saqlash sharoitlariga qattiq talab qo'yiladi. Buzoqlarga tinchlik va uzoq uxlash kerak, shuning uchun ularga yotish joylari issiq bo'lishi kerak.

Buzoqlar sut davrida oshqozon-ichak tuzilishini inobatga olgan holda oziqlantiriladi. Oziqlantirish maqsadga muvofiq mahsuldorlikni e'tiborga olib amalga oshirilishi kerak. SHu boisdan podani to'ldirish uchun mo'ljalangan tanalar va go'sht uchun o'stirilayotgan yosh qoramollarga turli daraja va tipdagi ratsionlar tavsiya etiladi.



4 – rasm. Sigirni emayotgan buzoq

Sut va sut-go'sht yunalishidagi podalarda buzoqlarga ikki xil usulda sut davrida sut ichiriladi: qo'ldan va enaga sigirlar ostida, go'sht yunalishidagi xo'jaliklarda esa to'liq onasini emdirish yuli bilan o'tkaziladi.

10-15 kunlik buzoqlar profilaktoriyadan umumiy buzoqxonaga o'tkaziladi va 10-15 boshdan sut davrining oxirigacha guruhlab saqlanadi. Bir bosh buzoqqa 1,5 - 2 m² maydon ajratiladi. Guruhlarda buzoqlar o'hshash bo'lishi va ularning farqi yoshi buyicha 10-15 kundan oshmasin.

Buzoklarga faqat sog'lom sigirlar suti beriladi. Sut va qaymog'i olingan sut miqdori xo'jalikda qabul qilingan sxema asosida amalga oshiriladi. Sut ichirish davri 3-5 oy, qisqartirilgan usulda 50-60 kunni tashkil etadi. Bu davrda buzoqlarni oziqlantirish uning zoti, nasl qiymati, maqsadi, tug'ish mavsumi va xo'jalik imkoniyatlariga qaraladi. Nasl qiymatiga qarab buzoqlarga turli miqdorda sut va sut mahsulotlari, pichan va shirali ozikalar beriladi.

Dastlabki 30-40 kunda 1/5 -1/6 tirik vaznga qarab sut ichiriladi. SHundan keyin uning yarmi qaymog'i olingan sut bilan almashtiriladi. Pichan eyishga 10 kundan, em 15-20 kunlikdan, shirali ozikalar 2 oylikdan beriladi. 11 kundan boshlab buzoqlarga yog'li sut almashtiruvchisini bersa bo'ladi. Tuyimliliği buyicha 1,2 kg yog'li sut almashtiruvchisi 10 kg qaymoqli sutga teng keladi. 6 l gacha sut ichirilganda 2 marta ichirilsa etarli, bu tartibga 10-15 kunlikdan o'tkazgan ma'qul.

Qish paytlarida 10-15 kunlikda buzoqlarni 10-20 minutdan boshlab yayratiladi, keyinchalik 2-4 soatga etkaziladi. YOzgi paytlarda ayvon va yayrash maydonchalarida o'stiriladi. Enaga sigirlar ostida buzoqlar 60-70 kunlikgacha o'stiriladi. Enaga ostidagi buzoqlar soni sigir sutdorligiga bog'liq bo'ladi yoki bir buzoqqa 4,0-4,5 kg sut to'g'ri kelishi lozim. YAngi tug'ilgan buzoqlarni enaga sigirlar tagiga 5-6 kundan qo'yiladi. Guruhdagi buzoqlar yoshi 10 kundan, tirik vazni 10 kg dan ko'p farq kilmasligi kerak. Har bir sigir buzoqlar bilan alohida kataklarda saqlanadi.

V. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK MASALALAR

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarni tobora chuqurlashtirish siyosati turli shakllardagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan mavjud bo'lgan ichki resurs mehnat, er-suv va moddiy texnikalardan samarali foydalanishda ularni tejash, resurslar bozorini tashkil etish muammolari echimini topish, servis xizmatlari va shartnomaviy munosobatlarni yanada takomillashtirish va yaxshilash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Qayd qilingan ishlab chiqarish resurslaridan eng asosiysi er hisoblanadi. SHuning uchun ham tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan barcha tadbirlar, resurslar samaradorligini asosini tashkil etadi.

Bozorni qishloq xo'jalik mahsulotlariga to'ldirish aholini kundalik oziq-ovqat, sanoat korxonalarini xom-ashyoga bo'lgan talabini to'la to'kis bajarish vazifalari mavjud. Ichki resurslardan to'la va samarali foydalanishni taqazo etadi.

Er maydonlaridan unumli foydalanishga erishish omillaridan biri er fondlaiga ekinlarni to'g'ri, ilmiy jihatdan asoslangan ketma- ketlikda joylashtirishni talab etadi. Ming afsuski erdan foydalanishdagi almashlab ekishdek eng muhim agrotexnik tadbir inkor etilmoqda. Pirovardida respublikamizning aksariyat hududlarida erlarning sho'rlanish darajasi va eroziyasi yildan yilga kuchayib ketmoqda. Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishga sarflanadigan ishlab chiqarish resurslari me'yoridan ortiqcha xarajat qilinib mahsulot tannarxini asossiz o'sishi oqibatida daromadlar kamayishiga sabab bo'lmoqda, hattoki sho'rlanish oqibatlarini tugatish maqsadida erlarni meliorativ holatini yaxshilashga millard so'mlab mablag' sarflashga majbur bo'lmoqdamiz.

O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, jamiyat bilan tabiat bir biri bilan o'zaro aloqaga kirishadigan soha hisoblanadi. Ming yillar davomida qishloq xo'jaligi

tabiatning do'sti deb hisoblab kelingan. U o'zining mohiyatiga ko'ratabiatga juda yaqin bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida tabiat kuchlaridan keng foydalanadi va bir qarashda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda tabiatning sof, sog'lom, samarador bo'lishidan kuproq manfaatdor.

Ishlab chiqarish kuchlari uncha taraqqiy etmagan sharoitda qishloq xo'jaligi ko'proq tabiat qonunlariga bo'ysindirishgan bo'ladi va to'g'ri faoliyat ko'rsatganda bu qonunlar bo'zilmaydi. Biroq hozirgi yuz yillikda qisqa vaqt ichida axvol tubdan o'zgardi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning industrial usullarining joriy etilishi natijasida tabiat kuchlari bilan iqtisodiyotning bu tarmog'i o'rtasidagi kuchlari nisbati o'zgardi.

Murakkab va og'ir vaznli mashina texnikalarining qo'llanishi ishlab chiqarishning ximiyalashtirilishi, erlarni melioratsiyalash, ishlab chiqarishning aynan sanoat asosidagi parrandachilik korxonalarining barpo etilishi tabiatni zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi oldida juda nochor, zaif axvolga solib qo'ydi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tabiatni do'sti bo'lmay, balki tabiat muhitni vayron qiluvchi ta'sir tobora kuchayayotgan eng xavfli dushmaniga aylandi.

Oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'sishiga asosan yangi mashina texnikasini kengroq qo'llash, ishlab chiqarishni ximiyalashtirish, melioratsiya tadbirlarni hisobiga foydalanilayotgan er maydonlarini ko'proq ekspluatatsiya qilish yo'li bilan erishilmoqda. Aynan azotli o'g'itlarning ortiqcha ishlatilishi ayniqsa xavflidir. Ular tuproqdagi azotni ushlab qolish qobiliyatini susaytiradi va muhitni nitratli azot bilan ifloslaydi. Qishloq xo'jaligi sohasida atrof muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha choralarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin;

Ulardan biri inson faoliyatining tabiat xolatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini oldini olishga, ikkinchisi esa shunday ta'sir oqibatlarini bartaraf qilishga yo'naltirilgan. O'z navbatida bu guruhlarning

har biri turli yoʻnalishlarga ega; texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va boshqalar.

YUqorida qayd etilganidek, eng hosildor boʻlgan erning yuqori qatlamini yoʻqolishiga olib keluvchi suv havzalarining tuproqdagi oziqa elementlarini va oʻgʻitlar bilan ifloslantiruvchi tuproq kurashi (erroziyasi) hisoblanadi.

Qishloq xoʻjaligi va atrof muhitni muhofaza qilish oʻz-aro chambarchas bogʻliq boʻlib, bir-biriga katta taʼsir koʻrsatadi. Bu oʻz-aro aloqadorlik va oʻz-aro taʼsir ijobiy boʻlishi ham, salbiy boʻlishi ham mumkin.

Joylardagi sanitariya-gigiena holatini yaxshilashda koʻkalamzorlashtirish katta rol oʻynashi lozim. Hozirgi kunda asosan organaleptik koʻrsatkichlar boʻyicha (badboʻy oʻziga xos hidlar) sanitariya himoya hududlari tavsiya etiladi.

Havo haroratining ruxsat etilgan meʼyordan yuqori boʻlishi, kishini tez toliqishiga, yurak-tomir kasalligiga chalinishiga, bosh ogʻrigʻini paydo boʻlishiga yoki issiq urishiga olib kelishi mumkin. Havo haroratining koʻrsatilgan meʼyordan past boʻlishi, kishi tanasidagi issiqlikni yoʻqolishini koʻpaytiradi va kishilarni harakatini cheklaydi va toliqtiradi.

Havoning nisbiy namligi 75% dan oshmasligi va 30% dan kam boʻlmasligi kerak. YUqori harorat ostida havo namligining ortishi natijasida organizmning issiqlik chiqarishi qiyinlashadi, natijada organizm qiziydi. Past harorat esa namlikning ortib ketishi tufayli organizmda issiqlik chiqishini tezlatadi, natijada shamollash kasalligiga chalinish mumkin. YUqori nisbiy namlik (85%) teri bugʻlanishining kamayishiga, juda past nisbiy namlik (20%) nafas olish yoʻllari shilliq pardasining qurib qolishiga olib keladi.

CHorvadorlar samarali faʼoliyat koʻrsatishining asosiy mezonlaridan biri bu ish joyidagi havoning tarkibiy qismidir. Tabiiy havo tarkibining asosiy tashkil etuvchisi boʻlmish kislorod gaziga inson organizmi juda seziluvchan. Agarda havoning tarkibida kislorodning miqdori 17 %gacha kamaysa kishilarni nafas

olishi va tomirlar urishi tezlashadi, 11-13 %ga tushganda gipoksiya holati va 7-8 %gacha kamayganda o'lim darajasiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligida ishlovchilarga doimiy ravishda turli xildagi changli sharoitda ishlashga to'g'ri keladi. Zaharli bo'lmagan mineral yoki organik changlar tomoq ko'z, nafas olish yo'li va o'pkani kasallantirishi mumkin.

CHorvachilik fermalarida ishchi uskuna va qurilmalardan ish jarayonida ajralib chiqadigan turli zaharli gazlar, harorat ish joyidagi muhitning o'zgarishiga va noqulayliga olib keladi. SHu sababli ish o'rinlarini sanitariya va gigiena talablariga mos holda tashkil etish maqsadida havoni tabiiy yoki mexanikaviy almashinish usullaridan foydalaniladi. Ish joylarida havoning almashinishi ishda samaradorlikni oshirishning va kasbiy kasalliklarni kelib chiqishini oldini olishning muhim omillardan biri hisoblanadi.

Molxonalardagi me'yoridan ortiq shovqin kishi oshqozonini ishlash faoliyatining buzilishi, yurak-tomir kasalliklari va quloqning bitib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. CHorvachilik binolarida vibratsiya ya'ni titrash natijasida asab va yurak-tomir tizimi zararlanishi mumkin, kapillyar tomirlarning spazmalanishi sodir bo'ladi, xushdan ketish va gipertoniya moyillik kuzatiladi, qonda o'zgarishlar, umumiy holsizlik yuz beradi. Titrashlar, ayniqsa, ayollar organizmiga zararli ta'sir ko'rsatadi.

Ultrabinafsha nurlar ta'siriga dalada, nurlantiruvchi qurilmalarda, chorvachilik fermalarida chorva mollarini nurlantiruvchilar zararlanishi mumkin. Ultrabinafsha nurlanish kishi organizmiga ma'lum miqdorda zarur. Bu nurlar bilan ortiqcha nurlanish elitromatozali teri kasalligiga, darmonsizlikka, bosh og'rig'iga, tana haroratining ko'tarilishiga va boshqalarga olib keladi. Terining himoyalangan qismi 0,2 m²dan ortiq bo'lmagan joylari bo'lsa (yuz, bo'yin, qo'l barmoqlari va boshq.) nurlanishning jadalligi me'yoridan oshmasligi kerak.

Infraqizil nurlanishga dala mehnatkashlari duchor bo'ladi. Infraqizil nurlanish, kishi to'qimalariga o'tib, uning tana haroratini oshiradi va jadal va uzoq vaqt ta'sir etishi, terining qizarishiga, kuyishiga, ko'z to'r pardasining shikastlanishiga va ayrim hollarda oftob urishiga olib keladi.

Mehnat gigienasini qo'llash ish sharoitlarini yaratish asosida mehnat unumdorligini oshirish, kasb kasalliklarini kamaytirish yoki butunlay yo'q qilish sanitariya-gigiena va davolash profilaktik tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ish joyidagi havoda zaharlanmagan chang 10 mg/m^3 dan, kvarts changi esa 2 mg/m^3 dan ko'p bo'lmasligi kerak. Havo tarkibida turli zaharli gazlar miqdorini aniqlash uchun UG-2 turdagi universal gazoanalizatoridan foydalaniladi.

Xavfli va zararli changlar miqdori me'yoridan oshgan taqdirda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish orqali himoyalaniş mumkin.

SHovqinlarning kuchi 80 detsibeldan yuqori bo'lsa kishi organizmiga salbiy ta'sir qila boshlaydi, 120 detsibeldan yuqorisi kishi asabini jarohatlashga olib keladi. Ba'zi ma'lumotlarga asosan shovqin kishi umrini 3-12 yilgacha qisqartirishi, yosh organizmning o'sish tezligini 15-57% gacha kamaytirishi mumkin.

SHovqinni kamaytirishning maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin: texnologik jarayonlarni o'zgartirish; qurilmalarni kam shovqin chiqaradigani bilan almashtirish; tovushni tarqatuvchi ekranlarni qo'llash; yuqori chastotali shovqinlar uchun shovqin qaytargichlar o'rnatish; qurilmalar va mashinalarni ishga yaroqli holatda saqlab turish va ishqalanadigan yuzalarni moylab turish. Binoning shiftlariga va devorlariga shovqin kamaytirgichlarni o'rnatish, shovqin darajasini 6-12 Db gacha kamaytiradi. SHovqindan individual himoya vositalari orqali ham saqlaniladi.

Sanitariya me'yor va qoidalariga asosan, titrashli ishlarga bog'liq bo'lgan joylarda 18 yoshga to'lmagan va homilador ayollarning ishlashiga ruxsat etilmaydi. Titrashdan himoyalaniş uchun rezina oyoq kiyimlari, paralonli ko'lqoplardan foydalaniladi.

Ultrabinafsha nurlanishdan himoyalaniş vositalari sifatida masofadan turib himoyalaniş, himoyalovchi ekran, parda va kabinalardan foydalaniladi. Ular ultrabinafsha nurlarini keng qaytarishi uchun ochiq ranglar bilan bo'yalgan bo'lishi lozim. SHaxsiy himoya vositalari sifatida, maxsus kiyimlar, poyabzal, qo'lqop, bosh kiyim hamda ko'zoynaklardan foydalaniladi.

XULOSALAR

1. Issiq iqlim sharoitida molxona va yayrash maydonchalarida iqlim ko'rsatgichlarini pasaytirish choralaridan (ayvon bostirma) foydanilganda buzoqlarning kunlik o'sishi va sigirlarning mahsuldorligini oshganligini aniqlagan.

2. Molxona haroratining har $+1^{\circ}\text{C}$ ga o'zgarishi va $+26^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lishi sigirlar tana haroratini $0,2^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishini va ular organizmida kliniko-fiziologik holatlarning o'zgarishiga sababchi bo'lganligini aniqlagan.

3. CHorvachilik binolarida mikroiklim ko'rsatkichlarini qoniqarli holatda bo'lishini ta'minlash ya'ni molxonaning quruq, issiq, yoqimsiz hidlar va elvizaksiz bo'lishi ventilyasiya havosining hajmiga bog'liq bo'ladi.

4. YOsh buzoqlarni yil mobaynida individual tipdagi uycha – profilaktoriyalarda, ochiq havoda tarbiyalash bizning xo'jaliklarda qo'l keladi.

5. YOsh hayvonlar nimjon, ta'sirchan va kasalliklarga tez chalinuvchan bo'lganligi sababli ularni optimal reja asosida oziqlanishini to'g'ri tashkil qilish va sanitariya-gigiena qoidalariga to'liq rioya qilish maqsadga muvofiq.

6. Og'iz sutini vitaminlarga, oqsillarga va makro va mikroelementlarga boy bo'lganligini inobatga olib o'z vaqtida to'g'ri ichirish lozim.

7. Sog'in sigirlar ratsionida quruq moddaning miqdoriga e'tibor beriladi. O'rta hisobda sog'in sigirning har 100 kg tirik vazniga 2,8 – 3,2 kg quruq modda to'g'ri kelishi lozim, bu sersut sigirlarda 3,5 – 3,8 kg, rekordchi sigirlarda esa 4,0-4,5 ga teng bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

8. YOsh hayvonlar yuqumsiz kasalliklarini oldini olish bu ular uchun optimal oziqlanish rejimini yaratish va yangi tug'ilgan yosh hayvonlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda parvarishlashni taqozo etadi.

9. Buzoqlarni qish va o'tish davrida har bir oziqlantirishdan so'ng tabiiy ventilyasiyani to'g'ri yo'lga qo'yib, go'ngdan tozalangandan so'ng mikroiklim ko'rsatkichlari me'yorda bo'lib, buzoqlarning tirik massasining o'sishi va uchraydigan kasalliklarni kamayishiga olib keladi.

10. Sut mahsuldorlik ko'rsatkichlardan tashqari, o'xshashlik belgilari buyicha bir xil bo'lgan sigirlardan ham turli yirik vazndagi buzoqlar tug'iladi.

11. Kam sut mahsuldorli sigirlardan tug'ilgan buzoqlarni maqsadga muvofiq alohida jadal boqish usulida o'stirish lozim.

12. Buzoqlarga tug'ilganidan 0,5-1,5 soat o'tmasdan og'iz suti ichirilsa, me'da-ichak tizimi faoliyati faollashib, kasallanishining oldi olinadi.

13. Buzoqlar sog'lom, tez o'sishi va rivojlanishi uchun ularni nur ta'sirida muntazam isitib turish zarur. Buning uchun profilaktoriyalarda "IKUF-1" yoki "LUCH" asboblari (ultrabinafsha nurlatgichlar) o'rnatilishi lozim.

14. Buzoqlarni erkin holda yayratish maydonlarida saqlash, ular tirik vaznining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shunday o'zgarishlar buzoqlarning kunlik, mutloq va nisbiy o'sishida ham namoyon bo'ladi.

15. Buzoqlarning o'sish - rivojlanishi buzoqxonada saqlanganga nisbatan yayratish maydonida soyabonli ayvon ostida erkin holda saqlanganda ijobiy samara berishi aniqlandi.

ISHLAB CHIQRISHGA TAKLIF VA TAVSIYALAR

Bitiruv malakaviy ishida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin.

1. Buzoqlarni o'sish va rivojlanishini yaxshilash maqsadida ular uchun me'yor talablari asosida mikroiklim ko'rsatgichlarini yaratishni taklif etamiz.
2. Buzoqlarni o'sish – rivojlanishini ta'minlash maqsadida ularni zoogigienik qoidalarga rioya qilgan holda saqlash va to'liq qiymatli oziqlantirishni tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi qonuni “Veterinariya to‘g‘risida” 03.09.1993
2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni 1995 yildagi ”Naslchilik to‘g‘risida” 1995
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 308 - qarori “SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 23.03.2006.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 842 - sonli qarori “SHaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirish rag‘batlantirish kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chikarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 21.04.2008.
5. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat-engilmas kuch. T. “O‘zbekiston” 2008.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy-inqrozi. O‘zbekiston sharoitida, uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T. “O‘zbekiston” 2009
7. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘lish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohatlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. “Zarafshon” gazetasini 2014 yil 19 - yanvardagi soni.
9. Akmalxonov T. “Turli sut mahsuldorli Bushuev zotli sigirlardan tug‘ilgan buzoklarning o‘lish kursatkichlari” j. Zooveterinariya 2009 yil № 8 35 – bet.
10. Akmalxonov SH.A. Biologicheskiy i zootexnicheskiy osnovq vedeniya molochnogo skotovodstvo v Uzbekistane. T. “Mehnat” 1993, 160 str.
11. Venediktova T.N. CHto me znaem o povedinie jivotnix. M. Kolos, 1978, 46 str.

12. Do'stqulov S.D., A.Raximov. Har xil genotipdagi buzoqlarning o'sish va rivojlanishi" Sam QXI ilmiy to'plami "Fermer xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari" 107 bet Samarqand -2007

13. Musinov YA., Y.A.Suvonqulov. Buzoqlar organizmiga mikroiklim ko'rsatkichlarining ta'siri. Sam QXI ilmiy to'plami. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida samaradorlikni oshirish omillari. Samarqand, 1995, 75 bet

14. Danila V. j. Zooveterinariya № 8 2009, 14 bet

15. Dosmuhammedova.M.X. Molochnaya produktivnost i nekotorie biologicheskiy ossobennosti korov cherno-pestroy porodq raznqx genotipov. Avtoreferat dissertatsii. T. 200 18 str

16. Ernst A.K. I drugie. "Povedenie selskoxozyaystvennyx jivotnyx" M. 1976, 66 str.

17. Eshbo'riev.B. Bug'oz sigirlar mikroelementozlarida gemotologik ko'rsatkichlar va ularning funksional holati. j. Zooveterinariya, 2009 №1. 25-26 betlar.

18. Kaxarov.A.K. va boshqalar. Har xil genotipli buqachalarning etologik ko'rsatkichlari. Sam QXI ilmiy to'plami. Samarqand, 2005, 48-49 betlar.

19. Kaxarov.A.K, Hushvaqtov.A. Qoramollarning etologik ko'rsatkichlari va uning mahsuldorlik bilan bog'liqligi. j. Zooveterinariya, 2009, №1 26-29 betlar.

20. Sobirov T., A.Amirov, A.Урымбетов. Oshqozon-ichak kasalliklarining oldini olishda og'iz sutining ahamiyati. j.Zooveterinariya, 2013, № 4 29 bet.

21. Sobirov T., M.Mannopov. YOsh hayvonlar rivojlanishida og'iz sutining ahamiyati" j.Zooveterinariya, 2010, № 1 18-bet

22. Saidov U. Qoramollarni oziqlantirish j.Zooveterinariya, 2011, № 11 42-43 betlar

23. Novikov E.A. Zakonomernosti razvitiya selskoxozyaystvennyx jivotnyx. M. Kolos, 1971.

24. Kleymenov N.I.Polnotsennoe kormlenie telyat. M. Kolos, 1975.

25. Roy X.. Djon. Выращивание телят. M. Kolos, 1982.

26. Xaitov R. Sogʻlom buzoq olish uchun nimalarga eʻtibor berish kerak. j. Zooveterinariya, 2008, № 4 11- bet
27. Internet saytlari:
- 27.1. [www. press-service.uz](http://www.press-service.uz), Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot sayti.
- 27.2. [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz). - Axborot – talim portali
- 27.3. [www. stat.uz](http://www.stat.uz). Oʻzbekiston Respublikasi - Davlat statistika qoʻmitasi sayti
- 27.4. [www. agro.uz](http://www.agro.uz). Oʻzbekiston Respublikasi - Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi sayti
- 27.5. [www. academy.uz](http://www.academy.uz). Oʻzbekiston Respublikasi - Fanlar akademiyasi sayti
- 27.6. [www. goldenpages.uz](http://www.goldenpages.uz). Zooveterinariya jurnali sayti